

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022


2022

УЧЕНЫЙ — ТОТ, КТО
МНОГО ЗНАЕТ ИЗ КНИГ;

ОБРАЗОВАННЫЙ — ТОТ, КТО
УСВОИЛ СЕБЕ ВСЕ САМЫЕ
РАСПРОСТРАНЕННЫЕ В ЕГО
ВРЕМЯ ЗНАНИЯ И ПРИЕМЫ;

ПРОСВЕЩЕННЫЙ — ТОТ, КТО
ПОНИМАЕТ Смысл Своей Жизни.

LEV TOLSTOY
(1828-1910)



OKTYABR
№ 45



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 45-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 38 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Aslanova Gulnoza Yashnarovna	
МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМГА ЗАМОНАВИЙ ЙОНДАШУВЛАР.....	7
2. Eshonqulova Jumagul Abduvoxidovna	
МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА КОМПҮТЕРЛІ ТА’ЛИМИЙ ВА РІВОЈЛАНТИРУВЧИ О’YINLAR О’ТКАЗИШ USLUBIYATI	9
3. Xidirov Bobir Nosirovich	
КASB-HUNAR MAKTABLARIDA O’QUVCHILARNI KASBGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI	11
4. Тиллаева Райхона Тўхтасиновна	
АДАБИЁТ ДАРСЛАРИДА ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ОШИРИШГА МЎНЖАЛАНГАН МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ	13
5. Хошимов Илҳом Хабибуллаевич	
ФОРМИРОВАНИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ И ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ СРЕДСТВАМИ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	15
6. Karimova Muyassarxon Xakimovna	
BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIGA SO‘Z VA UNING MA’NOLARI USTIDA ISHLASHNI O’RGATISH USULLARI	17
7. Nazarboyev Nursulton Saidmuhammad o‘g‘li	
INGLIZ VA O’ZBEK TILIDA FE’LLARNING QIYOSIY TASNIFI.....	19
8. Qalandarova Dildora Islomovna, Boltayeva Mehriniso Ilhomboy qizi	
BOSHLANG’ICH МАТЕМАТИКА FANINI QANDAY O’QITGAN MA’QUL.....	21
9. Sa’dullayeva Mehri Ahmedovna, Qurbonova Iroda Farxodovna	
BOSHLANG’ICH SINFLARDA MASALALAR YECHISH ORQALI O’QUVCHILARDA HAYOTIY KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH	23
10. Turdioxunova Muhayyo Furqatovna	
XX ASR HIND ADABIYOTINING RIVOJLANISHIDA ASOSIY O’RINNI EGALLAGAN QARASHLAR	25
11. Xasanova Nurxon Abidjonovna	
O’YINNING BOLA RIVOJLANISHIGA TA’SIRI	27
12. Абдуллаева Сурайё Зариповна	
ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМДА ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛО- ГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	29
13. Мирзаахмедова Гулчехра Эркиновна	
ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ШКОЛАХ	32
14. Ёриев Озодбек Ойбек ўғли, Турсуналиев Мансур Махпирали ўғли, Ашуров Рустам Рузиколович, Наркулова Индира Рустам кизи	
ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ ВОЕННОГО ЮРИСТА	34
15. Kenjayev Sherzod Mammatjumayevich	
TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O’QUVCHILARDA TEXNOLOGIK BILIMLARNI SHAKILLANTIRISHNING DOLZARBLIGI.....	36



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМГА ЗАМОНАВИY YONDASHUVLAR

Aslanova Gulnoza Yashnarovna

Mingbuloq tuman 48-MTT tarbiyachisi.

Tel: 90-797-72- 88

Annotatsiya: maqlolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning og’zaki nutqini o’stirish yo’llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha, badiiy adabiyot, nutq, tarbiyachi, kichik yoshdagi bolalar.

Yuqorida bayon etilganlar shunga guvohlik beradiki, O’zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta’lim tizimi bolaning individual xususiyatlarini inobatga oлган holda, davlat va jamiyat talablariga binoan har tomonlama rivojlantirilishini ta’milashi lozim. Maktabgacha yosning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda aynan umumiy rivojlanish ta’milanadi, natijada kelajakda har qanday ijtimoiy bilim, malaka, ko’nikma va faoliyatning turli ko’rinishlarini egallash uchun poydevor yaratiladi.

Ta’lim jarayoni bola shaxsiga yo’naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasi shaxsnинг rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta’lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim.

Pedagogik hamkorlikning asosiy holatlari-ta’limga tarbiyachi va bolaning o’zaro ijodiy hamkorligi sifatida munosabat; majburlamasdan o’qitish; qiyin maqsad g’oyasi (bolaning oldiga murakkab maqsad qo’yiladi va uni yengib o’tishiga ishonch hissi singdiriladi); tayanchdan foydalanish(tayanch signallar); o’z-o’zini tahlil qilish(bolalar faoliyati natijalarini yakka tartibda va jamoa bo’lib muhokama qilish); erkin tanlov (tarbiyachi tomonidan ixtiyoriy ravishda bolalarning o’quv dasturini yaxshiroq o’zlashtirishlarini maqsad sifatida belgi ishchanlik, kuzatuvchanlik, topqirlik kabi shaxsiy fazilatlarning o’zgarishida namoyon bo’ladi.

Ta’lim orqali inson va fuqaroning zamonaviy jamiyatga takomillashuvi hamda har tomonlama kirishuvi (qorishib ketishi) ta’milanadi; zamonaviy bilimlar darajasiga mos keluvchi dunyo tasviri shakllanadi; dunyo darajasiga mos keluvchi shaxsnинг milliy va dunyoviy madaniyatga integratsiyasini zamin tayyorlovchi jamiyatning umumiy va professional madaniyati vujudga keladi; jamiyatning milliy kadrlar salohiyati ishlab chiqiladi va rivojlaniriladi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida bolaga ta’lim-tarbiya berishda shaxsga yo’naltirigan ta’lim modeli ustuvor sanaladi. Shaxsga ongli yondashishning maqsadi-shaxsnи rivojlanirish, uni berilgan standart va bosim ostida —o’zgartirish emas., balki —uni qanday bo’lsa, shundayligicha qabul qilishdir. Shaxsiy yondashuv ta’lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy majburiyatlarini rivojlanirish va to’liq namoyon qilish uchun sharoit yaratishni ko’zlaydi. Shaxsiy majburiyatlar - bu shaxs tomonidan —shaxs bo’lish ijtimoiy buyurtmasini tatbiq etuvchi ma’lum fazilatlarning namoyon etilishidir. Pedagog tomonidan qadriyatlar orasida yo’nalishini aniqlash uning kasbiy faoliyatini belgilaydi. Shaxsga yondashuv pedagog va bolaga o’zini shaxs sifatida his qilishiga, ularning imkoniyatlarini aniqlash va namoyon etishga, o’zini anglab yetishga, jamiyat tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo’lgan o’z-o’zini anglash, o’z-o’ziga ishonish va o’zini kashf qilish usullariga imkon yaratadi.

Maktabgacha yoshda bola buyumlarning alohida yuzaki xususiyatlarini qabul qilishning yuqori cho’qqilarini egallaydi, ko’rgazmali shakldagi amaliy va aqliy vazifalarning yechimini topadi. Lekin bola hali buyumlarning ko’rinishiga ahamiyatsiz bo’ladi. Bu tabiiy hol chunki buyumlar uning uchun mavjuddir va ular bolani faqat amaliy va aqliy faoliyat ob’ekti sifatida qiziqtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bola buyumlarning mohiyatini emas, balki ularning tashqi ko’rinishi va ishlatalishiga qarab ish tutadi. Buyumlarning bizlarga qanday ko’rinishi bilan mohiyati o’rtasida katta farq bor. Buyumlarning mohiyati yuzaki emas, u shaxsiy tajriba orqasida yuzaga kelmaydi,



to`g`ridan-to`g`ri qabul qilinmaydi. U ijtimoiy tashkillashtirilgan o`quv – dunyoni ilmiy anglash orqali kashf etiladi.

Tubdan o`zgartirilgan o`qitish – bola va pedagogning hamkorlikdagi tubdan o`zgartirilgan (ko`rgazmali-rivojlaniruvchi) pedagog va bola shaxsini mustaqil tarbiyalashga yo`naltirilgan faoliyati, qaysiki shaxsiy mazmunni hayotiy bo`shliqda qimmatli ahamiyatga ega bo`lgan, pedagog va bolaning universallashtirilgan tizimi. Tubdan o`qitish quyidagi yondashuvlarni nazarda tutadi:

Ijtimoiy pedagogik yondashuv. Uning mazmuni shundan iboratki, bola tomonidan insoniyat tajribasining o`zlashtirilishini ta`minlovchi rivojlanishni amalga oshirish. Bunday yondashuv ta`lim berish jarayonini yakuniy natijaga-bola shaxsining ijtimoiylashuviga erishishga yo`naltirilgan. Uning mohiyati bola tomonidan jamiyatning ahloqiy, ma`naviy o`zgarishlarni tubdan isloh qilishdir. Bunday yondashuvda ta`lim tarbiya beruvchi vazifani bajaradi.

Gnoseologik (bilish faoliyati) yondashuv o`qitish jarayoni mohiyatini anglash jarayonidan olib chiqadi va yuzaga kelgan anglash faoliyatini modifikatsiyalaydi (variatsiyalaydi).

Xulosa qilib aytganda, o`qitish insonning individual rivojlanishini tezlashtiradi, qaysiki ijtimoiy qonunchilikka bo`ysunadi. Shu bilan birga u insonning o`rnatilgan tartibda individual rivojlanishi bilan birga, inson ongingin umumiy tarixiy rivojlanishiga ham bog`liqdir. O`qish umumiy va individual anglash shakllarini yaqinlashtiradi, individual faoliyatni umumiy anglash tizimiga yaqinlashtiradi, bolaning shaxsiy tajribalari va o`qish va o`qitish davrida yuzaga kelgan tushunchalar orasidagi tafovutlarni chaqiradi. Gnoseologik o`qitishning mohiyati ta`lim vazifalarini tabiq etishda o`qitilayotgan ob`ektning individuallashtirish jarayonini amalga oshirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. P. Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T., 1995 y.
3. “Maktab va hayot” jurnali 3-son 16-18 berlar 2016 yil.



**МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА КОМПҮТЕРЛІ ТА’ЛИМИЙ ВА
РИВОЈЛАНТИРУВЧИ О’YINLAR О’ТКАЗИШ USLUBIYATI**

Eshonqulova Jumagul Abduvoxidovna
Mingbuloq tuman 13-MTT tarbiyachisi.
Tel: 99- 005-88-03

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarga innovatsion texnologiyalar orqali lingvistik ta’lim berishning o’ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha, yoshdagi bolalar, axborot texnologiyalari, tarbiyachi, rivojlantiruvchi.

Kundalik hayotimizga hamda kishilar faoliyatining ko’p sohalariga kirib kelayotgan va ularning rivojlanishiga ta’sir qilayotgan axborot va kompyuter texnologiyalarini tezlikda rivojlanishi, ularni o’yin, o’yinli faoliyat, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishga ham ta’sir etmoqda.

Hozirgi vaqtida maktabgacha yoshdagi bolalarga yangi axborot texnologiyalarini o’rgatish, ularni kompyuter bilan tanishtirish, kompyuter savodxonligi asoslarini o’qitish, axborot jamiyatni hayotiga psixologik tayyorgarliklarini shakllantirish masalalari dolzarb vazifalar sirasiga kirmoqda.

Respublikamizdagи maktabgacha ta’lim tashkilotlarda o’tazilayotgan ko’pgina tajribalarning natijalari, yoshi katta bolalar bog’chalarida maxsus kompyuter o’quv-o’yinli va rivojlantiruvchi dasturlardan foydalanish yaxshi samara berayotganligini tasdiqlamoqda, shuningdek, amaliyot, bevosita bolani axborot olami bilan tanishishining bиринчи bosqichi bo’lishi mumkinligini ko’rsatmoqda. Respublikamizda ko’p hollarda bunday ishlar maktabgacha ta’lim tashkiloti mashg’ulotlarida emas, balki ko’proq uyda, ota-onalari, akalari va opalari bilan ham amalgalashmoqda.

Shuning uchun, bugun maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglar va shu soha bo’yicha ilmiy-tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilardan kompyuterdan MTTda foydalanish mumkinmi? Kompyuterli rivojlantiruvchi o’yin nima? Maktabgacha yoshdagi bolalarni o’yin faoliyatida to’laqonli shakllanish va rivojlanish jarayonida, u an’anaviy o’yin va o’yinchoq bilan bir qatorda turishi mumkinmi? Kompyuterdan foydalanish chegarasi mavjudmi? Kompyuterli o’yin va o’yinchoqlardan foydalanish oqibati nimalarga olib kelishi mumkin? Kompyuterni MTT bolalariga o’rgatish ijobiy va salbiy tomonlari qanday? kabi savollarga javob kutilmoqda.

Quyida o’yinlarga taa’lluqli nazariy fikrlarni keltiramiz.

Kompyuterli dastur bola uchun yangi o’yin vositasi, qiziq va boshqariluvchi o’yinchoq bo’lishi mumkin va bu vositalar yordamida turli-tuman o’yin masalalarini yechishi, demak, rivojlanishi mumkin. Lekin kompyuter o’yinini muvaffaqiyatli egallash uchun bolada psixik jarayonlarni shakllanganlik darajasi talab etiladi. Shuning uchun ham ko’pgina psixolog olimlarning fikricha kompyuterni 5 yoshdan kichik bo’lmagan bolalarga tanishtirish mumkinligini ta’kidlaydilar. Chunki:

1. Kompyuterni faoliyat vositasi sifatida to’laqonli foydalananish uchun, boladan belgilar, umumlashgan shakllar (buning uchun, unda yetarlicha rivojlangan ong, ijodiy tasavvur kerak) bilan ishlashni bilishi kerak. Ekrandagi tasvir – haqiqiy ёки o’yinli ob’ektlarning shakllari va belgilardan iborat va ular bilan bola muvaffaqiyatli amallar bajarishi uchun, uning ongi yetarli darajada rivojlangan bo’lishi talab etiladi.

2. Kompyuter dasturi bilan ishlaganda bevosita ikkilangan faoliyat amalga oshiriladi, masalan, bola barmoqlari bilan kompyuter tugmalarini yoki «sichqoncha»ning tugmasini bosib, qo’llari bilan amallar bajarishi va bir vaqtning o’zida ekranga qarab unda tasvirlangan narsa va hodisalarini kuzatishi kerak.

3. Bolada harakatlarni ixtiyoriylik darajasi va erkin o’zini-o’zi tartibga solish hususiyati rivojlangan bo’lishi talab etiladi.

Kompyuterda ishlashni o’rganishga mo’ljallangan yuqorida keltirilgan shartlar turli-tuman predmetli-amaliy va o’yinli faoliyatda (rasm solish, yasash, rolli o’yin va h.k.) shakllanadi. Bevosita an’anaviy o’yin tabiiy ravishda, bolani majbur qilmagan holda u yoki bu harakatlar qilishga yo’naltiradi va bu harakatlarga uni aralashtiradi. O’yin (dastlab narsalar bilan, keyin



narsa ёки belgi asosida tasavvur kiladigan vaziyatli o'yinlar)da harakatlarining sifatlari o'zgartirish, yig'ish, umumlashtirish, belgilarni o'rniga (imo, so'z) qo'yishlar juda aniq namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, rivojlantiruvchi o'yin, faoliyat sifatida bolada bosqichma-bosqich yoshiga bog'liq bo'lgan harakat turini, o'xshash fikrlashning belgili vazifasini rivojlanishini, ko'rgazmali-shaklli fikrlashga o'tishni, tushuncha turidagi nutqiy fikrlashni shakllanishini vujudga kelishini ta'minlaydi. Shuning uchun, bola tomonidan turli an'anaviy o'yinlarni o'rganishi kompyuter o'yinlarini egallash uchun zarur bo'lgan asosni yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarining o'yinli faoliyatiga kompyuter dasturlarini kiritish, to'g'ri dasturiy mahsulot tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish, kompyuter o'yinini bolalarning o'yinli faoliyatidagi haqiqiy vositasiga aylantiradi. Shunda bolaning o'yin muhitini yetarlicha boyitish va kompyuter bolani psixikasi hamda intellektini rivojlantirishining qudratli omiliga aylantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
- 2.N.Sayidaxmedov. «Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash». Toshkent. 2000 yil.
3. N.Sayidaxmedov «Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyani kullash namunalari». Toshkent 2002 yil.



KASB-HUNAR MAKTABALARIDA O'QUVCHILARNI KASBGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Xidirov Bobir Nosirovich
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani
2-sonli kasb-hunar maktabi
Telefon +998939064555


Annotatsiya: Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Respublikamizdagi kasb-hunar maktablarida bir qancha kasblar bo'yicha o'quvchilar o'qitiladi. Kasb-hunar egallashda psixogik, ijtimoy omillarning o'rni judayam yuqori. Ushbu maqolada kasb-hunar maktablarida kasbiy tayyorlovda psixologik omillar va ularning o'rni haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasb, kasb-hunar maktabi, World Skills, motivatsiya, so'rovnoma, kasbiy tayyorgarlik, tafakkur.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'lik emas, u ma'lum yoshga kelib o'z o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim.

Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini oлgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz [2,93-94 b].

Barchamizga ma'lumki yangilanayotgan O'zbekistondagi iqtisodiy yuksalish, barcha sohalarida kirib kelayotgan yangi texnologiyalar, yaratilayotgan ish o'rnlari bu yangi texnologiya talabiga javob beradigan yangi avlod yoshlarni tayyorlash O'zbekiston yuksalish dinamikasiga munosib yangi professional kadrlar tayyorlash tizimini yaratish zaruriyati tug'ildi. Shunga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoniga asosan kasb-hunar maktablari tashkil etildi. Kasb-hunar maktabida o'quvchilarni qabul qilish 9-sinf bitiruvchilar hisobidan bo'lib, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi va 2 yillik dastur asosida, umumta'lim va mutahasislik fanlarining integratsiyalashtirilgan dasturlar asosida, kunduzgi ta'lim shaklida bepul amalga oshiriladi. Kasb-hunar maktablarida kasbiy tayyorlovda ijtimoiy-psixologik omillar muhim o'rinni egallaydi. Sababi har bir o'quvchi qiziqishi va oilaviy sharoitidan kelib chiqqan holda kasb-hunar tanlaydi. Maktab o'quvchilaridan kasb-hunar maktabiga qiziqishlari qay darajada ekanligini bilish maqsadida so'rovnoma o'tkazganimizda aksariyat o'quvchilar kasb-hunarga qiziqishlari yuqori ekanligini bildirishdi. O'tkazgan so'rovnomamizda quyidagi natijalar qayd etildi. Faqat kasb-hunarni egallashni xohlovchi o'quvchilar 35%, maktabda o'qishni davom ettirib, keyinchalik oliy ta'limga topshirishni xohlayotgan o'quvchilar 45%, qolgan 2 yil davomida ham kasb-hunar egallab, ham oliy ta'limga topshirish istagini bildirganlar 20% ni tashkil qildi.





Bundan ko’rinib turibdiki, o’quvchilarni kasb-hunar egallahga bo’lgan qiziqishlari yuqori darajada. O’zim ishlayotgan kasb-hunar maktabi qishloq hududida joylashganligi uchun ham kasb-hunar maktabimizdagi yo’nalishlar qishloq sharoitiga mos kasbga o’quvchilarni tayyorlaydi. O’quvchilarni kasbiy samaradorligini oshirishda psixologik va ijtimoiy omillar albatta hisobga olinishi zarurdir. Bunda o’quvchilarning o’z kasbiy “Men”ini anglashlariga erishish faoliyat motivatsiya tizimini tashkil etuvchi muhim tuzilma bo’lib hisoblansa, psixologik qo’llab quvvatlash uning jarayonini o’zida mujassam etadi. O’quvchilar bevosita kasb-hunar maktabini tanlab, kasb-hunar egallahni xohlar ekanlar bu ularning yelkasidagi ma’suliyat hissini bir necha barobarga oshiradi. Kasb-hunar maktabi o’quvchilari o’rtasida yo’nalishlar kesimida “Nega aynan bu kasbni tanladim” mavzusida so’rovnama o’tkazganimizda, o’quvchilarning 60% qismi tanlagan kasbini chuqur egallab xalqqa xizmat qilishini, 40% qismi esa ishlab oilasini moddiy tomonдан ta’minlashga o’z hissasini qo’shamoqchi ekanligini bildirib o’tishgan. Kasb-hunar maktablarida o’quvchilarning kasbiy qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida “Kasbim –Faxrim” turkumi doirasida seminarlar va amaliy mashg’ulotlar o’tkaziladi. Bundan tashqari xalqaro darajada o’tkaziladigan World Skills xalqaro musobaqasi o’quvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda muhim o’rin egallaydi.

Kasbiy tayyorlanishda psixologik omillarning eng muhimi sinchkovlik, tafakkur kengligi, chuqurligi va mustaqilligi, fikrning egiluvchanligi, aqlning sertashabbusligi, mantiqiylik va ijodkorlik sifatlarida ifodalaniishi mumkin. Kasb quyidagi tamoyillar birlashtiradi.

- Kasb tayyorgarlikni talab etadi.
- Kasb qonuniylikni talab etadi.
- Kasb uning egasiga foyda keltirishi zarur.
- Kasb ixtiyoriylikni talab etadi.

Xulosa o’rnida aytadigan bo’lsak, Yoshlarning kasb-hunar egallashi nafaqat ularning ehtiyoji balki jamiyatning ham ehtiyoji hisoblanadi. Shuning uchun jamiyat o’z ishlab chiqaruvchularini yaratishi zarur jarayonga aylanadi. Jamiyat ishlab chiaqrish orqali yashaydi va hayot kechiradi. Jamiyat ehtiyojlari esa har doim o’sib boradi. Uni qondirishning yagona yo’li kasb egalarini tarbiyalash, ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda yangidan-yangi kasblarni yaratish hisoblanadi. Inson to’g’ri kasb tanlash orqali o’z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatlardan biridir. Zeroki, insonning egallagan kasbi insonning jamiyatdagi o’rnini va kelajagini belgilab beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. F.R. Abduraxmonov , Z.E. Abduraxmonova (2018) “Kasb psixologiyasi”
2. Yusupova F. I. O’quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” jurnali. 2005. №5. 90-93-b.



**АДАБИЁТ ДАРСЛАРИДА ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ОШИРИШГА
МҮНЖАЛЛАНГАН МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ**

**Тиллаева Райхона Тўхтасиновна,
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат
ўзбек тили ва адабиёти университети
мустақил изланувчиси**

Адабиёт дарсларида ташкил этиладиган бундай изланиш фаолиятини нисбатан янги педагогик ғоялар билан уйғунлаштириш мумкин. Унинг моҳияти асарни таҳлил қилиш учун ижодий тадқиқот лойиҳасини яратишдир. Ижодий тадқиқот қоидаси бўлиб ишнинг уй вазифаси сифатида бажарилиши ҳисобланади. Изланишлар давомида ўқувчилар кузатган, гувоҳи бўлган ёки ўқиган маълумотларини ассоциатив идрок этишларини намойиш этишлари зарур бўлади. Бошқача айтганда, назарий билимларни ва иш учун рангтасвир намуналарини бирлаштирган реферат яратиш вазифаси қўйилади. Бу борада қўйидаги методлардан фойдаланамиз:

“Фояларни топиш” методи муаммони ечишнинг оддий йўлини бошқасига алмаштириб қўчиришдир. Болада ижодий фикрлашнинг бир қатор хусусиятларини таркиб топтиришга қаратилган “Тасодифий таъсир” методи мазмунида муаммога умуман алоқасисиз сўз – тасодифий тушунчани топиш, “сўз – муаммо”ни тақослаш, улар ўртасидаги боғланишларни юзага келтириш кетма-кетлиги мужассам.

“Ижодий пауза” – масофа тузиш, яъни тескари қарашиб учун қисқа тўхталишдир. Соғлом фикр ёки соғлом ақл чегараларининг мантиқсиз ва хато вазиятлар эвазига бузилиши “Ментал бузилишлар” методига хос бўлиб, мазкур хусусият истиқболдаги ўзгаришлар, янги-янги ғоялар туғилишига замин яратади. Масалан, адабий қаҳрамонлар хатти-харакатларини ўзгариш ёки асар воқеалари содир бўлган макон ва замонни бошқасига ўтказиш орқали буни амалга ошириш мумкин. Масалан, Умар закунчи

Методнинг афзалликлари: ғоялар таклиф этиш жараёнда узилишлар бўлганда фикрлаш учун янги импульслар берилиши; ечимларнинг ностандарт варианatlari ва янги ғояларнинг яратилишига хизмат қилиши; ўйин элементлари (сюжетли, муаммоли, интеллектуал, харакатли)ни киритиш орқали ўқувчиларнинг мотивациясини оширишида қўринади. Буларнинг барчаси юқори синф ўқувчиларининг ўқув ҳаркатларини фаоллаштириш, ташаббускорлигини таъминлаш ва ҳаётга тайёрлашда муҳим аҳамият касб этади.

“Шляпалар” методи фикрлашнинг турфа хил усуулларини тезда алмаштириш орқали турли рангдаги шляпаларни ўқувчиларга кийгизиш орқали ташкил этилади. Бунда ҳар бир рангнинг мазмунидан келиб чиқиб вазифалар юқлатилади: Хусусан: “Оқ нейтрал ва объектив. Оқ шапка – бу объектив фактлар ва рақамлар. Қизил ранг ғазабни, эҳтирос ва ҳиссиётни билдиради. Қизил қалпокча ҳиссиётни беради. Қора – хира ва инкор қилувчилар. Қора шапка салбий томонларини оқлайди –німа учун бирор нарса амалга ошмайди. Сарик – қуёшли ва ижобий ранг. Сарик шапка оптимизмни назарда тутади ва умид ва ижобий фикрлаш билан боғлиқ. Яшил – ўсаётган ўтларнинг ранги. Яшил шляпа ижодкорлик ва янги ғояларни англатади. Мовий – совуқ; бундан ташқари, бу ҳамма нарсадан устун бўлган осмоннинг ранги. Кўк шляпа ўйлаш жараёнини ташкил қилиш ва назорат қилиш, шунингдек, қолган шляпаларни ишлатиш учун жавобгардир” [1].

Бунда шляпаларни доимий равиша алмаштириб туриш шарти белгиланади. Масалан, адабиётдаги янги психологик тип сифатида Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романи қаҳрамони Мирёкуб ҳакида гапирилганда, дарсда унинг шахси, кечинмалари, ўй-хаёлларини чукуроқ ўрганиш имконини берадиган “Шляпалар” методидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Бу усул ҳар бир “шляпа” ўз ранги ва ўзига хос қидирув вазифасига эга бўлган гуруҳ ишини таъминлайди. Юқоридагиларга таянилса, вазифаларни қуйидагича тақсимлаш мумкин бўлади:

1. “Оқ шляпалилар”: романда кўтарилган муаммоларни излаш.
2. “Қизилшляпалилар”: қаҳрамоннинг хатти-харакатларига ўз нуқтаи назарини билдириш: асардаги бадиий ифода воситаларини аниқлаш: портрет тасвири, деталлар ва нутқ хусусиятларига муносабат билдириш.
3. “Қора шляпалилар”: Мирёкуб фаолиятининг танқидий таҳлили, унинг ҳаракатларидаги



қарама-қаршиликлар.

4. “Сариқ шляпалилар”: Мирёқубнинг ижобий ишларига муносабат билдириш.
5. “Яшил шляпалилар”: қаҳрамоннинг вазиятдан чиқиш йўлларини таклиф этиш.
6. “Кўкшляпалилар”: қаҳрамон тушган муаммоли вазиятларнинг сабаблари ва ечимларини излаш.

Бунда қўйидагиларга амал қилинади:

Оқ шляпалиларга ўрганилаётган обьект ҳақида қандай маълумотга эгалиги, у ҳақдаги қандай муҳим маълумотларга эҳтиёжи борлиги, уларни қай тарзда топиш мумкинлиги ҳақидаги саволлар берилади. Қизил шляпалилардан ҳис-туйғулари, интиутив фикрларини шунчаки бирор асоссиз баён этиш сўралади. Қора шляпалиларга танқидий фикрлаш, масалага эҳтиёткорона муносабатда бўлиш, камчиликлар топиш, хатоларнинг олдини олиш, бошдан белгиланган шартларга амал қилиш, ғояни бузмаслик талаби қўйилади. Сариқ шляпалилар режани амалга ошириш асосида муваффақиятларга эришиш имконияти мавжуд бўлади. Креатив фикрлаш, янги ғояларни қидириш шарти белгиланадиган яшил шляпалилар олдига ўз олдига қўйилган вазифаларни ўзгача усул билан ҳам ечиш ёхуд уларга бошқача таъриф бериш ҳақидаги саволлар қўйилади. Кўк шляпалилар ҳам, ўз навбатида, мавзуларни аниқлаш, улар юзасидан обьектив назорат ва фикрлаш усулларини текшириш, фикрлаш жараёнида кўрсатмалар бериш ва бошқа шляпалилар фаолиятини жадаллаштириш имконига эга бўладилар.

Фойдаланилган бошқа адабиётлар

1. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua/ I qism / B.To‘xliyev va boshq. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.
2. Шарипов Ш.С. Талабалар ихтирочилик ижодкорлигини шакллантиришнинг педагогик шароитлари: Пед. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 122 б.



ФОРМИРОВАНИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ И ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ СРЕДСТВАМИ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Хошимов Илхом Хабибуллаевич.

Ведущий специалист Министерства народного образования Республики Узбекистан

Телефон: +9989998780098

hoshimov1479@mail.ru

Аннотация: В статье представлена информация о том, что сохраняя традиции, обычаи и культуру народа, можно привить любовь к национальному наследию путем чтения художественной литературы. В учебных заведениях стало уделяться больше внимания пропаганде чтения художественной литературы. Это имеет большое значение для роста духовно-интеллектуального потенциала молодежи, расширения мировоззрения народа, особенно молодого поколения, воспитания гармонично развитых личностей.

Ключевые слова: художественная литература, культура, студенты, книги.

В настоящее время в Республике Узбекистан особое место уделяется культурным историческим ценностям. Сохраняя традиции, обычаи и культуру народа, можно привить любовь к национальному наследию путем чтения художественной литературы. К сожалению, в современном мире учащиеся уделяют больше времени не художественной литературе, а больше интернет.

В учебных заведениях стало уделяться больше внимания пропаганде чтения художественной литературы. Это имеет большое значение для роста духовно-интеллектуального потенциала молодежи, расширения мировоззрения народа, особенно молодого поколения, воспитания гармонично развитых личностей.

По Постановлению Президента от 13.09.2017 года. «О Программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения». Важными задачами остаются качественное издание книг, отвечающих духовным и художественно-эстетическим потребностям нашего народа, прежде всего молодежи, своевременная доставка книжной продукции по приемлемым ценам на места, в том числе в образовательные учреждения, перевод лучших образцов национальной и мировой литературы, формирование у подрастающего поколения с раннего детства любви к книге, навыков чтения электронных книг, повышение культуры чтения в нашем обществе [1].

Для формирования мировоззрения и культуры личности, детям ещё с малого возраста нужно читать книжки для развития интеллекта. Чем больше информации ребенок получит в детстве, тем легче ему будет в дальнейшем. На формирование, развитие и становление личности как фактор является книга. Как известно, умственное воспитание заключается в интеллектуальном воспитании, развитии интеллекта.

В учебном процессе на чтение книг обращено особое внимание, так как чтение является одним из способов формирования информационной культуры учащегося. Как показали исследователи, эту культуру формирует не сам читатель, а общество, к которому он принадлежит.

По мнению В.Н.Руденко, высшее образование перестает быть только профессиональным, оно становится элементом общей культуры. Моделируя целостный образ выпускника вуза - интеллигента, ученые единны в том, что выпускник должен быть прежде всего человеком культуры, т.е. свободной, гуманной, духовной личностью, ориентированной на ценности мировой и национальной культуры, способной к творческой самореализации в мире культурных ценностей, к нравственной саморегуляции и адаптации в изменяющейся социокультурной среде (Е.В.Бондаревская).

Одной из важнейших функций школы на современном этапе является передача молодежи ценностей духовной культуры. Духовная культура общества и личности охватывает процессы воспитания, образования, формирования и функционирования сознания, мировоззрения, нравственности.

Никакое учебное заведение не в состоянии дать глубокие знания, если учащийся не захочет пополнять их путём самообразования с помощью чтения книг. В наше стремительное



время научного и технического прогресса необходимо постоянное обращение к книге, так как оно является не только благородной привычкой, отличающей культурного человека, но и острой социальной необходимостью, диктуемой самой жизнью. Знания, полученные в образовательных учреждениях, в школе и в институте, неизбежно устаревают без постоянного и системного их пополнения.

Из-за нехватки времени студенты в основном читают книги по специальности и изучаемой дисциплине, на художественную литературу у них остаётся очень мало времени. Изучение особенностей современного состояния и перспектив развития образования показало, что необходимо расширить круг интересов студентов, чтением литературы не только по специальности, но и художественную. Активное внедрение новых современных литературных источников, пойдет на пользу воспитанию эрудированных и образованных студентов.

Современная отечественная и зарубежная высшая школа уделяют первостепенное внимание культурологическому компоненту образования. Высокие требования предъявляются не только к профессиональной выучке специалиста практически любого профиля, но и к его духовно-нравственному облику, отношению к коллегам, обществу и окружающей среде. В настоящее время высшее образование не видит альтернативы процессу гуманизации подготовки профессиональных кадров (В.Н.Руденко).

Наиболее полно и конкретно по сравнению с другими, более абстрактными видами художественного творчества (музыка, живопись) отражаются жизненные ситуации, человеческие характеры, духовные ценности и нравственно-эстетические идеалы, присутствует богатая полифония окружающей действительности. именно литературная осведомленность и «начитанность» составляют основу «культурного фона» личности [6].

Таким образом, художественная литература является своеобразной летописью человеческого общества, могучим орудием человеческой культуры, великим средством воспитания молодого поколения [2]. Это позволяет сделать вывод, что художественная литература играет особую роль в процессе воспитания и становления студентов, в формировании полноценной личности, ее идеалов.

Список литературы

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О Программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения» Национальное информационное агентство Узбекистана. 13.09.2017
2. Балатукова З.И. Роль художественной литературы в воспитании молодого поколения // Молодой ученый, 2015. № 15. С. 661-663.
3. Бондаревская Е.В. Педагогическая культура как общественная и личная ценность // Педагогика. 1999. № 3. С.37-43.
4. Дускаева Л. Р. , Протопопова О. В. На пути к речевому мастерству. Пермь, 2000. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения: В 2 т. — Т 2. — М.: Педагогика, 1982. — С. 34
5. Руденко В.Н. Культурологические основания целостности содержания высшего образования// Педагогика. – М., 2004. - № 1. – С.45.
6. Уста-Азизова Д.А. Научно-педагогические основы духовно-нравственного воспитания студентов во внеаудиторное время (на материалах художественной литературы Узбекистана): Дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2007. – С. 92.
7. Ушкова Н.В. Художественно-эстетическое воспитание студентов в вузе // Молодой ученый, 2013. № 10. С. 544-545.



**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA SO‘Z VA UNING MA’NOLARI USTIDA
ISHLASHNI O‘RGATISH USULLARI**

Karimova Muyassarxon Xakimovna,
O‘zbekiston tumani 51-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish, ularning lug‘atini boyitish, muloqotga kirisha olish va fikr ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda so‘z ma’nolari ustida ishlash masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. So‘z ma’nosni, fikr, tafakkur, mashq, nutq.

Jamiyatimizning har bir a’zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o‘z ona tilining sadoqatli sohibi bo‘lmog‘i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo‘lmoqning bosh sharti esa uning tiganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya’ni fikrni mustaqil, ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirmoqdir. Zotan, nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o‘ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta’minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

Boshlang‘ich ta’limda so‘zlarning ma’nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma’nosini tushuntirish mazkur so‘z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma’nosinn tushuntirish bilan o‘quvchilar predmet keng ma’noda qo‘llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe’l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

So‘zning ma’nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmasligi kerak. Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma’nosini tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zлarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o‘rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O‘qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma’nosini bilmaydigan ayrim so‘zlar matnni o‘qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o‘qish jarayonida so‘z ma’nosini tushuntirishga chek qo‘yish kerak. Agar biror so‘zni matnni o‘qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug‘ilsa, matn mazmunidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmagan holda shu so‘z ma’nosini qisqacha tushuntiriladi.

Ko‘chma ma’noda ishlatilgan obrazli so‘zlar va badiiy nutq oborotlari matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma’nosni matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o‘qilganda, undagi allegorik, ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zлarni asarni o‘qishdan oldin yoki o‘qish jarayonida tushuntirib bo‘lmaydi.

Metodikada so‘zлarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalilanadi:

1. So‘zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o‘quvchilar tushunmaydigansо‘zularga tushunarli so‘zlar qo‘llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So‘z ma’nosini lug‘atdan va o‘qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o‘quvchilarini izohdan mustaqil foydalanib, so‘z ma’nosini mustaqil tushunib olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So‘z ma’nosini shu so‘zning ma’nodoshi yordamida tushuntirish.

Masalan, sabo - shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqachi, diyor - vatan, inshoot - bino, samo - osmon kabi. So‘zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so‘zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko‘rsatish zarur.

4. Tanish bo‘lмаган so‘z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo‘lgan so‘z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo‘y so‘zini yolg‘onchi so‘ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘z va so‘z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So‘zni o‘ziga yaqin tushuncha bilan, ya’ni boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so‘zning izohi qisqa va aniq bo‘lishi kerak. Masalan, o‘zboshimchalik – o‘z xohishicha ish tutish, ishni o‘zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis – biror hunar egasi; shunqor



– uzoq uchadigan ko‘zi o‘tkir qush; mesh – mol terisidan tikilgan idish; guldon – gul solib qo‘yiladigan idish va boshq.

Ba’zi so‘zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn – bir vaqtning o‘zida donni o‘radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo‘jalik mashinasi; ekskavator - bir vaqtning o‘zida yerni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo‘nadigan joy va hok.

6. So‘zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq – suvsiz joyda o‘sadigan ninasimon tikanli o‘simlik; akula – okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq va boshq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so‘zlarning ma’nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o‘quvchilar o‘rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo‘lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish, ularning lug‘atini boyitish, muloqotga kirisha olish va fikr ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurdir. Shunday ekan, so‘z ma’nosini tushuntirish ustida ishslash o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006. – 476 b.
2. Tolipov Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.
3. Xodiev B., Golish L. Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. –T.: TDIU, 2010. – 87 s.
4. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili. O‘zMU, T.: 2002.



INGLIZ VA O’ZBEK TILIDA FE’LLARNING QIYOSIY TASNIFI

Nazarboyev Nursulton Saidmuhammad o‘g‘li

Xorazm viloyati Tuproqqa’ tumani

19-maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi

Telefon:+998942399626

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi fe’l turlari qiyosiy tahlil qilinib, grammatika va leksika bog‘liqligiga asoslangan ilmiy tasnif nazariyasi xususida fikr yuritigan.

Kalit so‘zlar: Fe’l, til birliklari, mustaqil va yordamchi, standart va nostandart, bir, ikki va uch valentli fe’llar.

Til birliklarini guruhlarga ajratishda leksika va grammatika o‘rtasidagi aloqani hisobga olishleksik-grammatik tasnif sanaladi. Tildagi eng katta va keng qamrovli leksik-grammatik tasnif – so‘z turkumlari. So‘z turkumlarining leksik tomoni ularning negizida ifodalangan abstrakt kategorial ma’nolardir: harakat, predmet, belgi va h.k. Grammatik tomoni esa ularning morfologik kategoriyalari ifodalagan Grammatik ma’nolardir: zamon, modallik, nisbat va h.k. Grammatik tasnif asosida faqat Grammatik belgi yotadi. Bunga ingliz tilidagi fe’llarning standart va nostandart turlarga ajratilishini misol tariqasida keltirish mumkin.

Leksik-grammatik va grammatik tasniflar chet tilini o‘qitishda va o‘rganishda juda katta ahamiyatga ega. Bizningcha, chet tili grammatikasi bo‘yicha darsliklar va qo‘llanmalarda Grammatik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan tasniflar berilishi lozim.

Ingliz va o‘zbek tili da quyidagi grammatik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan fe’l tasnifi mavjud.

1. Fe’llarning mustaqil ma’nosiga ko‘ra turlari (har ikkala tilde mavjud): Mustaqil ma’no ifodalishiga ko‘ra fe’llar mustaqil va struktural guruhlarga bo‘linadi. Mustaqil fe’llarning leksik ma’nolari to‘iq bo‘ladi va ular mustaqil ravishda ifodalanganadi. Mustaqil fe’llar, odatda, gap bo‘lagi bo‘lib keladi va ular ikkala tildagi lug‘atlarda beriladi. Mustaqil fe’llar ochiq tizimni hosil qiladi. Gap ifodalangan voqeani mustaqil fe’llarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki ular obyektiv borliqdagi aniq harakatlarni, holatlarni, jarayonlarni atab, gapning eng kerakli qismini ifodalaydi. Struktural fe’llar (har ikkala tilda mavjud) mustaqil ma’no anglatmaydi, gap bo‘lagi vazifasida kela olmaydi, asosan, mustaqil fe’llarga xizmat qiladi. Ular, asosan, turli grammatik ma’no ifodalash uchun qo‘llaniladi va asosiy fe’l ifodalangan harakat ma’nosiga modal, tarz, zamon, nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik va boshqa grammatik ma’nolarni muhim grammatik ahamiyati ham shundadir. Ingliz tilida struktural fe’llarga bog‘lama, yordamchi va modal fe’llar, o‘zbek tilida esa bog‘lama, yordamchi(to‘liqsiz) va ko‘makchi fe’llar kiradi. Bog‘lama fe’llar (har ikkala tilda mavjud). Bog‘lama fe’llar ot, sifat va son so‘z turkumlari bilan birgalikda ot kesimni hosil qiladi. Ular ot, sifat yoki son bilan ifodalangan predikativni – kesimning ot qismini ega bilan bog‘laydi va ma’noli bo‘laklarga ajralmaydi. Ular ingliz tilida sof (**be**) va maxsus bog‘lama fe’llarga (look, seem, appear, feel, taste, become, get, grow, remain, keep, turn) bo‘linadi.

O‘zbek tilida nomustaqlar fe’llarning ayrimlari – edi, ekan, emish va bo‘lmoq kontekstga qarab bog‘lama(Men kasal edim. U sening otang bo‘ladi.) va yordamchi fe’l (U ham brogan edi. Ishdan kelayotgan edim.)bo‘lib kelishi mumkin. Yordamchi fe’llar har ikki tilda mavjud bo‘lib, ingliz tilidagi yordamchi fe’llar **to do, to have, to be, shall, will, should, would** fe’lning grammatik shakllarini yasash uchun xizmat qiladi: Do you speak English?; He has come. O‘zbek tilida **edi, ekan, emish va bo‘lmoq** fe’llari yordamchi fe’l vazifasida kelganda, fe’l shakllarini yasaydi: U kelayotgan edi.

Ko‘makchi fe’llar o‘zbek tilida mavjud bo‘lib, **boshlamoq, yotmoq, yurmoq, turmoq, o‘timoq, bo‘lmoq, bitirmoq, olmoq, bermoq, qolmoq, qo‘ymoq, chiqmoq, bormooq, kelmoq, ketmoq, yubormoq, tashlamoq, tushmoq, ko‘rmoq, boqmoq, yozmoq** kabi fe’llarni ichiga oladi. Ingliz tilida ko‘makchi fe’llar bajargan vazifalarni odatda fe’ldan keyin ishlatiladigan ayrim ravishsimon so‘zlar(**up, out, in, down, on, off**) bajaradi: to cut up, to cut out, to cut in, to cut down, to cut on, to cut off.

Modal fe’llar ingliz tilida mavjud bo‘lib, **can, must, may, should, ought to, will** o‘z shakllari, grammatik belgilari, ma’nolari, ishlatilishi va yana qator xususiyatlari bilan boshqa struktural fe’llardan ajralib turadi. Ular kerak, imkoniyat, ehtimollik, mumkinlik, noreallik, guman, ruxsat, ishonchszilik, xohish-istak, taqiq kabi modal ma’nolarni, shuningdek, his-hayajon, ajablanish,



achinish kabi qator ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

2. Fe'llarning shakl yasashiga ko'ra tasnifiga ko'ra standart fe'llar har ikkala tilda mavjud: **U ishladi**-He worked

Nostandard fe'llar faqat ingliz tilida mavjud: He **came** at 2 o'clock. A **broken** pen

3. Fe'llarning obyektga munosabati bo'yicha turlari: O'timli fe'llar har ikki tilda mavjud: He is reading a book. – U kitob o'qiyapti.

O'timsiz fe'llar ham ikki tilda mavjud: He is sleeping. – U uxlayapti.

Qorishiq fe'llar faqat ingliz tilida mavjud: Ular matnga bog'liq holda o'timli (We sell books) yoki o'timsiz(The books sell well) bo'lishi mumkin. Afsuski, qorishiq fe'llar hech bir ingliz tili grammatikasiga oid darsliklarda tilga olinmaydi.

Fe'lning bu leksik-grammatik va Grammatik turlari o'zbek hamda ingliz tillarida soni, ma'nolari, shakllari va qo'llanilishi bilan farq qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hajiiev A. O'zbek tilida ko'makchi fe'llar.-Toshkent:1966
2. G'ulomov A. Fe'l. –Toshkent:1954
3. Blokh M.A. Course in theoretical English Grammar. M:1983



BOSHLANG'ICH MATEMATIKA FANINI QANDAY O'QITGAN MA'QUL

Qalandarova Dildora Islomovna

Xorazm viloyari Bog'ot tumani
1-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon:+998(99)-082-66-74

Boltayeva Mehriniso Ilhomboy qizi

Xorazm viloyari Bog'ot tumani
1-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon:+998(91)-998-48-40

Annotatsiya. Ushbu maqola ko‘proq matematika hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan. Matematika fanini o‘qitishda o‘quvchilarни darsga qiziqtira olish va matematikani sevishga o‘rgatish.

Kalit so‘zlar: matematika, matematikani o‘qitish maqsadlari, bilim, ko‘nikma, malaka, innovatsion texnologiya.

Mutaxassislarning ta‘kidlashlaricha,matematikani yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo‘ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda,balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish,muhokama va muzokara olib borish,ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o‘zida shakllantiradi.

Boshqa har qanday o‘quv predmeti kabi matematika boshlang‘ich kursi ham quyidagi maqsadlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) Matematika o‘qitishning umumta‘limiy maqsadi.
- 2) Matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi.
- 3) Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi.

O‘qituvchi bu maqsadlarga asoslanib, o‘quvchilarga matematik bilim beradi,o‘quvchilarни ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan masalalarni yechishga o‘rgatadi va hokazo.

Har bir o‘quvchi mifiktabda o‘qishni boshlar ekan,o‘qish,musiqqa,jismoniy tarbiya darslari kabi matematika darsini ham zo‘r qiziqish bilan o‘rgana boshlaydi ,hattoki bu fanni sevib ham qolishadi. O‘zimiz ham birinchi sinfga borgan vaqtimizni bir eslaylik...

Sinfda bir nechta bolani hisobga olmasa qolganlari boshlang‘ich matematikani o‘zlashtira oladilar.Yuqori sinfga o‘tgani sari matematika fani dasturi ham murakkablashib boradi, o‘quvchilarda esa bilim ,ko‘nikma hosil bo‘lishida bo‘shliqlar paydo bo‘la boshlaydi. Ana o‘shanda matematika fani o‘qituvchilari juda ham ziyraklik bilan o‘zlashtirishga qiynalayotgan o‘quvchilarini ajrata bilishlari, kerak bo‘lsa ular bilan boshqacharoq uslubda ishlashlari zarur bo‘lib qoladi.

Agar o‘quvchilarga yetarli e‘tibor berilmasa, ular bir nechta mavzuni o‘zlashtirolmaganligi natijasida —bilmasvoy lik kasaliga uchray boshlaydi. Keyin u o‘quvchilarimiz matematika darslarida zerikib o‘tiradi va ularning ongida

—matematika fani qiyin degan tushuncha paydo bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda nafaqat o‘quvchilar, balki mifiktabni bitirgan kattalarning ko‘p qismi ham matematikani qiyin fan deb hisoblashadi.

Psixoglarning aytishicha insonni ong osti boshqaradi. Biz ong ostimizga matematika oson va qiziqarli deb singdirsak ,albatta u miyaga shunday buyruq beradi va matematikani oson va qiziqarli deb qabul qilishni boshlaymiz. Matematika darslarimizni ham shunday uslubda olib borishimiz kerak,ya‘ni darsni boshlayotganda avvalo ochiq chehra bilan matematika qiziqarli fanligini, uni osongina o‘zlashtirib olishlarini ta‘kidlab aytish ,o‘quvchilarga motivatsiya berib ruhlantirish kerak. Dars turidan kelib chiqib biror bir qiziqarliroq o‘yin bilan boshlansa ham bo‘ladi.

Masalan, o‘yin nomini —Matematika bilimdonlari deb nomlasak, bunda uchta yoki to‘rtta past o‘zlashtirayotgan o‘quvchini taklif qilib har xil geometrik shakllar chizilgan qog‘ozlardan pog‘onalar yasab olinadi. Biz albatta har bir o‘quvchimizni bilimi qay darajadaligini yaxshi bilamiz. Iloji boricha o‘zlashtirishga qiynalayotgan o‘quvchilarga o‘zlari biladiganroq savollarni berib keyingi pog‘onaga o‘tishiga o‘zlariga sezdirmagan holda yordamlashsak,to‘g‘ri javoblari uchun ularni olqishlab ruhlantirib turilsa,bu o‘quvchi —men bilyapman deb keyingi darslarga yanada yaxshiroq tayyorlanadi, uy vazifalarini doim bajarishga harakat qiladi. Fanlarni yaxshi



o‘zlashtirish albatta o‘quvchini uy vazifasini bajarishiga bog‘liq.

Yangi mavzuni tushuntirishda yoki mashqlar ishlash darslarida ham iloji boricha sodda, o‘quvchilarga yangilik bo‘lgan ,ularni yanada o‘rganishga undovchi eng so‘nggi pedagogik va innovatsion usullardan,multimediya vositalari hamda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish kerak. Besh qo‘l barobar bo‘lmaganidek, sinflardagi o‘quvchilarning bilim darajasi, qabul qilish imkoniyatlari ham turlicha bo‘ladi . Shuning uchun zamonaviy,mohir pedagog o‘quvchilarni bir nechta guruhlarga bo‘lib olsa,yoki ba‘zilari bilan individual shug‘ullansa yanada a‘lo ish bo‘ladi. Iqtidorli o‘quvchilar uchun alohida topshiriqlar, past o‘zlashtirayotganlarga esa soddaroq vazifalar tayyorlab kelish kerak.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o‘zlashtirish qanday holatda ekanligini aniqlash, o‘z natijalarini boshqa davlat natijalari bilan qiyosiy taqqoslash, rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O‘zbekiston ta‘lim tizimida qo‘llash imkoniyatlariga ega bo‘lish uchun davlatimiz PIRLS,TIMSS,PISA va TALIS xalqaro baholash dasturlarida qatnashish harakatini yo‘lga qo‘yan. Ushbu dasturlar O‘zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish,kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Biz ta‘lim berayotgan o‘quvchilar ham shunday tadqiqotlarda qatnashib davlatlararo tengdoshlari orasida yuqori natijalarga erishsa, katta-katta yutuqlarni qo‘lga kiritishsa eng katta yutug‘imiz bo‘lar edi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati:

1. J. Ikromov —Maktab matematika tili, Toshkent, —O‘qituvchi-1992 yil.
2. Pedagogik mohirlilik,san‘at va bilimdonlikni ifodalovchi atama. Pedagogik entsiklopediya 2017yil.
3. www.uzedu.uz
4. www.ziyonet.uz



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALALAR YECHISH ORQALI
O'QUVCHILARDA HAYOTIY KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH**

Sa'dullayeva Mehri Ahmedovna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
1-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon:+998(97)-603-02-25

Qurbanova Iroda Farxodovna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
1-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon:+998(99)-504-28-80

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarni samarali va maqsadli tashkil etish asosida masalalar yechish orqali o'quvchilarda hayotiy kompetentsiyalar shakllantirish masalalari bayon etilgan

Kalit so'zlar: arifmetik masalalar, "baho", "miqdor", hayotiy kompetentsiyalar, matematik savodxonlik, mantiqiy fikrlash, matematik o'lchov.

Boshlang'ich sinflarda arifmetik masalalar matematika kursining eng katta va muhim tarkibiy qismidir. Ularda butun kursning asosiy mazmuni va shu bilan birga arifmetik tushunchalarning mazmuni ochib beriladi. Masalalar yechish jarayonida o'quvchilar har bir amal ma'nosini va ularni qo'llashning asosiy hollarini o'zlashtira dilar; og'zaki va yozma hisoblash malakalari qo'llaniladi va mustahkamlanadi, masalalar yechishga urgatish ularning mustaqil faoliyatlarini rivojlantirish uchun, ularda faollik va tashabbuskorlikni oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'quvchilarda masalalarni yechish ko'nikmasi to'rt yil mobaynida asta sekin rivojla nib boradi. Maqsad o'quvchilarning o'zlarini yechishga kuchlari eta oladigan arifmetik masalalarni yechish yo'llarini mustaqil topa olishlariga erishishdir.

Bolalarni masalalar yechishga o'rgatishda ularga masalalar yechishga yondoshish ning ba'zi umumiyl usullarini o'rgatish muhim hisoblanadi. Chunonchi, bolalar o'qituvchi boshchiligidagi masalani qisqa va tushunarli yozishni, masala shartini rasm va chizmalar bilan namoyish qila olishni o'rganib olishlari, shu bilan masala yechish yo'llarini o'zlarini uchun engillashtirishlari, aniq bir masala shartini mavhumlashtirishni (masalan, "baho", "miqdor", "qancha turish", kabi mavhum atamalardan foydalanib) va masalada berilgan miqdorlar bilan izlanayotgan miqdor orasidagi bog'lanishni ochishda yordam beruvchi usullarni o'rganib olishlari kerak.

O'quvchilarning fikrlash faoliyatlarini va nutqlarini rivojlantirish uchun ularni masalani va uning yechilishini tashkil qilishlariga, masalani yechishdagi har bir amalni asoslab berishga o'rgatish muhimdir. Ular yechilayotgan masalada nima berilgan, nima izlanayotganligi (noma'lumligi) ni, masalaning savoldidan nima kelib chiqishini, masala savoldidan javob topish qanday arifmetik amallar yordamida amalga oshirilishini va ularni qanday tartibda bajarish kerakligini tushunib yetishlari, shuningdek, har bir tanlangan amalni asoslay olishlari va topilgan natijalarni tushuntirib bera olishlari, berilgan masala bo'yicha ifoda tuza olishlari (barcha zarrur tushuntirishlari bilan), masalani yecha olishlari va yechimning to'g'rilingini tekshira olishlari lozim.

Bunda matematika faniga doir masala, misol, topshiriqlarni bajarish uchun, albatta, uni tushuna bilish zarur. Masalan, topshiriqlar gaplar vositasida ifodalanadi. Gap qurilishini esa, shubhasiz, ona tili fani o'rganadi. Fanga oid matnlarni tinglab tushunish, mantiqiy fikrlash orqali matematik o'lchov va hisob-kitoblar bilan bog'liq masalalarni yechish, laboratoriya va boshqa tajribalarni o'tkazish jarayonida eng maqbul yechim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilish malakalari rivojlantiriladi.

Tayyor masalalarni yechish bilan bir qatorda o'quvchilarni o'qituvchining turli topshiriqlari bo'yicha masalalar tuzishga mashq qildirish foydali. O'quvchilar masalalar tuzishlari uchun sonli va syujetli materiallarni atrof-borliqdan olishlari kerak. Dasturda har xil kattalikni (qancha turishi, miqdori, bahosi, narsalarning umumiyl massalari, narsalar miqdori (soni), bitta narsanining massasi va hokazo) arifmetika bilan uzviy bog'liqlikda o'rganishda ularni o'lchash usullari, eng sodda formulalar yordamida ifodalanuvchi bog'lanishlar qaraladi. (masalan, "hamma sotib olingan narsa qancha turishini bilish uchun narsaning bahosini narsalar soniga ko'paytirishi kerak" ekanligini bolalar og'zaki tushuntiriladar.



Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarni samarali va maqsadli tashkil etish natijasida, o‘quvchilarda quyidagi hayotiy kompetentsiyalar shakllantiriladi:

- Ma‘suliyat va moslashuvchanlik-shaxsnинг o‘zida, ish o‘rnida va hamjamiyat miqiyosida ma‘suliyatli bo‘lish va moslashuvchanlikni mashq qilish, o‘ziga va boshqalarga nisbatan yuqori marra va standartlarni belgilash va ularga erishish;
- Muloqot ko‘nikmalarini-turli shakl va mazmundagi samarali og‘zaki, yozma va multimediali asoslangan muloqotni anglash, boshqarish va ijod qilish;
- Ijodiy qiziquvchanlik-yangi g‘oyalari o‘ylab chiqish, ularni amalga oshirish va boshqalarga ham ma‘lum qilish, yangi va turli imkoniyatlarga ochiq va hozir turish;
- Tanqidiy fikrlash va tizimli fikrlash - masalani anglashda va murakkab qarorlar qabul qilishda puxta dalillar keltirishdan foydalanish; tizimlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni anglash;
- Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni tahlil etish, baholash, yangi ma‘lumotlar to‘plash;
- Shaxslararo va jamoada ishly olish, hamkorlikda faoliyat yuritish;
- O‘z-o‘zini va o‘zgalar faoliyatini munosib baholash;
- Ma‘lum ish o‘rinlarida samarali faoliyat ko‘rsata olish...

Matematika hayot bilan bog‘liq fan ekanligini hisobga olgan holda darslarda yuqoridagi va bir qancha hayotiy kompetentsiyalarni shakllantirishga yordam beruvchi: hamkorlikdagi, muammoli va didaktik o‘qitish ta‘lim texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etish kelajakda o‘quvchilarning komil inson sifatida voyaga yetishishida muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Axmedov M. , Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo‘llanma.)Toshkent. —SHarqri 2005 yil.
2. Pedagogik mohirlilik,san‘at va bilimdonlikni ifodalovchi atama. Pedagogik entsiklopediya 2017yil.
3. www.uzedu.uz
4. www.ziyonet.uz



**XX ASR HIND ADABIYOTINING RIVOJLANISHIDA ASOSIY O'RINNI
EGALLAGAN QARASHLAR**

Turdioxunova Muhayyo Furqatovna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-IDUM hind tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr hind adabiyotini rivojlanishining o'ziga xos jihatlari, o'sha davrdagi adiblarijodi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyot, janr, qadriyat, e'tiqod, an'ana, ma'naviyat.

XX asr hind adabiyoti — hozirgi zamon ko'p millatli bir butunlik va bir makondan iboratdir, unda e'tiqodlar, an'analar, ma'naviy qadriyatlar yonma-yon yashaydi. Mana shu narsa hudud, til va an'analarga ko'ra tafovutlar bo'lishiga qaramay, umumiy qalbga ega bo'lgan yaxlit bir madaniyatga murojaat qilishimizni oqlaydi. Mazkur yaxlitlik mexanik va tashqi emas, konseptual va ichki xarakterga ega. Organik metaforada ko'p millatli hind adabiyoti yaproqlari orasida ziddiyat yo'q daraxtga qiyoslanadi, undagi yaproqlar ochiq havoda emin-erkin nafas oladi, ildizlari esa yerga tobora chuqurlashib boraveradi — ikkovi ham hayot va kuch-quvvat manbaiga talpinadi.

Hozirgi zamon hind adabiyotidagi asarlar, xususan, hikoyada, g'oya va mavzuga ko'ra bosh yo'naliш hamda problematika mavjud vogelikka bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy qurilishdagi har qanday, hatto sezilar-sezilmash o'zgarish ham realist yozuvchi nazaridan chetda qolmaydi, bu narsa qahramonlar obrazida, ularning ichki dunyosida aks etadi.

XX asr boshlaridagi hind adabiyotida romantizm rivojlandi, u milliy-ozodlik harakatining murakkab ziddiyatli hodisalarini aks ettirdi va shu bilan bir qatorda qadimgi hind diniy-falsafiy an'analarini ham o'ziga singdirdi. Romantizm asosan she'riyatda namoyon bo'ldi. Romantizmning qaror topishida R. Tagorning xizmatlari ulkandir. R. Tagorning ijodi Hindiston madaniy taraqqiyotida butun bir davrni tashkil etadi. U butun hind adabiyotini g'oyaviy-estetik jihatdan boyitdi, insonparvarlik, novatorlik ruhi bilan yuksaltirdi, uning hayot bilan aloqalarining mustahkamlanishi va kengayishiga ko'mak berdi, yangi badiiy usul hamda yo'naliшlarning qaror topishiga turtki bo'ldi. Romantizmning asoschisi Tagor o'zbek kitobxonlariga 1925-yildan beri tanish bo'lgan dastlabki hind adabidir. R. Tagorning hikoyalari rus va o'zbek tillarida 50-yillarda «Sharq yulduzi», «Zvezda Vostoka» jurnallarida chop etilgan. 1958—1965-yillarda esa Tagorning asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, sakkiz jilddan iborat to'plam shaklida o'zbek kitobxonlariga tortiq qilingan.

Hind ijodkorlari ilg'or chet el tajribasini hind zaminiga olib kirishga harakat qildilar, hind adabiyotiga yangi qahramonlar, yangi obrazlar, ifoda vositalari va usullari kirib keldi. Hindiston adabiyoti uchun yangi bo'lgan inqilob kurashchisi — ishchi sinfi vakili obrazi kirib keldi. 20-yillarda milliy-ozodlik harakati masalasigina emas, balki Hindistonning ijtimoiy ozodligi mavzusini ko'tarib chiqadigan adabiy oqim vujudga keldi. Bu oqim 30-yillarda rivoj topdi. Shunday mavzudagi asarlar bangal, hindiy, telugu, tamil, malayalam, marath, gujarat va boshqa adabiyotlarda paydo bo'ldi. Ilg'or estetik tafakkur adabiyotning g'oyaviy va mavzu jihatdan yangilanishiga imkon yaratadi. Bu yangilanish 30-yillarda davr almashishidan dalolat beruvchi janr jihatdan boyish bilan qo'shilib ketgan edi. Roman, qissa, hikoya, qisqa she'r yanada rivoj topdi. 20—40-yillar tamil she'riyatini mashhur vatanparvar shoir Suppiramaniya Baradiy (1881—1921)ning g'oya va obrazlari munavvar qilib turadi. Ushbu g'oyalar Tamilnaduning Pudumeypittan, N. Pichchamurtti, B. S. Ramayya, M. P. Somasundaram (Somu) kabilar ijodida o'z aksini topgan.

Shoir va adib Somuga tanqidiy ruh xosdir. Uning asarlari tamil ziyolilari, mayda savdogarlar turmushiga chuqur kirib borishi bilan ajralib turadi. Ushbu to'plamga Somuning «Uch xotin» nomli hamda tamil yozuvchisi va davlat arbobi Raja Go'palachariyaning hikoyasi kiritilgan. Hozirgi kunda Janubiy Hindistonning boshqa adabiyotlari, xususan, tamil adabiyoti bilan uzviy bog'liq holda malayalam adabiyoti ham rivoj topmoqda. Hozirgi zamon malayalam she'riyatining klassigi, peyzaj va grajdan lirikasining atoqli ustasi Vallathol o'z insonparvarligi, optimizmi, jo'shqinligi bilan keyingi avlodga mansub Changampuja Krishna Pillay, K. P. G. Nambudiri kabi shoir va adiblarga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Ushbu to'plamdan Sarasvatiy Ammaning «Bekami-ko'st xotin» nomli hikoyasi o'r'in olgan.

Hozirgi zamon kannada (kannara) adabiyoti ham Janubiy Hindiston nasriy adabiyoti bilan



hamohang ravishda rivojlanmoqda: tarixiy, ijtimoiy-maishiy mavzulardagi romanlar, falsafiy, tarixiy, maishiy mavzudagi hikoyalar, ayniqsa, rivojlanmoqda. O'zbek kitobxoni Ashvatha Narayanraoning hikoyasi orqali mazkur adabiyot bilan tanishish imkoniyatiga ega. Andhra xalqi yaratgan telugu adabiyoti o'ziga xos xususiyatlarga ega. XX asrning 20—50-yillari telugu adabiyotida romantizm bilan murakkab bog'lanishda rivojlanayotgan tanqidiy realizmning qaror topish davridir. Mustaqil Hindistonda milliy belgiga ko'ra tashkil topgan birinchi shtat Andhra shtati edi (1953). Shu sababli ushbu adabiyot vakillari ifodaning yorqin shaklda bo'lishiga intiladilar. Buni Bommireddipalliy Suryaraoning to'plamidan o'rinn olgan «Yovvoyi yosuman» hikoyasida ko'rish mumkin. Marath va gujarat adabiyoti ma'lum darajada «Hozirgi zamon hind hikoyasi» (T., 1958) to'plamida taqdim etilgan bo'lisa, Gujarat yozuvchisi Pannala'l Patelning «Sendur» va nozik did marath adibi P. L. Deshpandening «Boshliqning marhamati» nomli hikoyalari bilan tanishgach, kitobxon mazkur milliy adabiyotlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilishi mumkin.

50-yillarda hind she'riyatidagi romantik yo'nalishning emotsiyonal, lirk jihatni kuchaydi. 20-30-yillar lirk she'riyatidan farqli ravishda 50-yillar she'riyati xayoliy, sehrli emas, balki haqiqiy sevgi va baxtni, tabiat va inson qalbining asl go'zalligini tarannum etdi. Mana shunday lirika Panjob shoirasi Amrita Pritam ijodiga xos. Uning she'riyati kuchli ehtiroslar, o'tkir kechinmalarga boy, unda sevgi lirikasi ustunlik qiladi. Amrita Pritam yuz minglab hind ayollari nomidan, ularning qismati, ichki dunyosi haqida yozadi. Ularning taqdirdagi hammaga xos umumiyligi va qonuniy boigan hodisalar aks etgan. Shoira ijtimoiy ziddiyatlar keskinligini dadil va ayovsiz ravishda ochib tashlaydi, hind jamiyatida yangi axloqiy me'yorlar o'rnatadi. («Nomalar», 1956, «Mushk», 1956 to'plamlari). Ma'nnaviy jihatdan qoniqmaslik motivlari uning ijtimoiy mavzudagi to'plamlarida aks etgan («Qora atirgul», 1967; «Turmush», 1968). A. Pritamning prozasi uning lirk she'riyatidagi bosh mavzu chizig'ini davom ettiradi va uni haqli ravishda hind ayoli turmushining qomusi deb atash mumkin. («Doktor Dev», «Panjara», «Bir savol», «Emigrant», «Kisavurlar» va boshqa romanlari). A. Pritam O'zbekistonga katta hurmat-ehtirom bilan qaraydi. Bu haqda u o'zining «Xotiralar»i (Dehli, 1962)da yozadi. «Xotiralar»dagi 7 ta ocherk O'zbekistonga, to'plamning o'zi esa O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaga bag'ishlangan. A. Pritam bilan Zulfiyani yaqin ijodiy va do'stlik rishtalari bog'lab turadi — «Bhangra» va «Oydin tun» she'rlari 1958-yilda Zulfiya tarjimasida nashr etilgan edi. Mana endi oradan salkam yarim asr o'tib, o'sha ikkita she'r yana o'quvchilar e'tiboriga havola etilmoqda. A. Pritam bilan bir qatorda Premchand an'analarining eng yaxshi davomchisi Amritla'l Nagar hindiy adabiyotiga kirib keldi. Davrni kuchli his etish, yuksak darajadagi grajdanimlik mas'uliyati, hind milliy xarakterining yorqin aks ettilishi — uning asarlariga xos xususiyatdir. A. Nagar 50-yillardagi o'zining eng yaxshi romani «Tomchi va dengiz»da ziyoli kishining o'z xalqi oldidagi burchi, mustaqil Hindistonni qurish yo'llari haqida fikr yuritadi. Mazkur yilda esa do'griy yozuvchilarining Birinchi umumhindiston konferensiyasi bo'lib o'tdi. Jammu va Kashmir shtatida mazkur til regional til deb tan olingan. O'zbek kitobxoni do'griy adabiyoti namunasi bilan birinchi marta P. B. Sathening hikoyasi orqali tanishish imkoniyatiga ega. Sindhiy tilida so'zlashuvchilar, asosan, G'arbiy Hindiston (Mumbay, Ahmadobod, Nagpur va h.k.)da istiqomat qiladi.

Yuqorida fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, xx asr hind adabiyoti jahon adabiyoti o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Chunki bu davrda ijod qilgan adiblar xalq dardi bilan ijod qildi. Mehnatkash xalqning mashaqqatlarini o'z ijod namunalarida ko'rsatib berdi. Insonparvarlik, xalqparlik, erk g'oyalari ularning ijodida ufurib turadi. Bugungi kunda o'sha davr adabiyotini nafaqat hind xalqi, balki, butun insoniyat sevib mutolaa qilmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati

1. Tamara Xo'jayeva, Ansoriddin Ibrohimov. Respublika bolalar kutubxonasi. Taqvimj.uz
2. M.Jumaboyev. O'zbek va jahon adabiyoti. O'quv qo'llanma. 1996-yil.
3. Z.Masharipova, T.Matyoqubova. O'zbek yozma adabiyotida folklore an'analari. Toshkent 2011-yil.



O‘YINNING BOLA RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Xasanova Nurxon Abidjonovna
Mingbuloq tuman 48-MTT tarbiyachisi.
Tel: 95-052-85- 89

Annotatsiya: Maqolada Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar nutqini o’sirishda ot so‘z turkumini o’qitishda o‘yin faoliyatining ahamiyatini asoslash yo’llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yoshdagi, o‘yin faoliyati, tarbiyachi, tafakkur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o‘yindir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmokda. Maktabgacha yoshidagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bolalarning o‘yinlari orkali ularda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashkari, agarda biz bolalarning o‘yini faoliyatlarini tashkaridan kuzatsak, o‘yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga kuprok kizikishi, kobiliyati, irodasi temperamenti) yakkol namoyon bo‘lishini kuramiz. SHuning uchun bolalarning o‘yin faoliyatlarini ularni individual ravishda urganish uchun juda kulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda uzlari yolgiz uynaydilar. Predmetli va konstrukturli o‘yinlar orkali bu yoshdagi bolalar uzlарining idrok, xotira, tassavur ,tafakkur hamda harakat layokatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o‘yinlarda bolalar asosan uzlari xar kuni kurayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti –harakatlarini aks ettiradilar. O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo‘lgan ta’lim faoliyatiga tayyorlaydi. Ko‘pchilik psixologlar hamda pedagoglar o‘yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug‘ullanib, o‘yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tganlar. Ma’lumki, o‘yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. o‘yining qiziqarligi uni anglab etishning osonligidadir o‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo‘lgan tahlim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo etarli darajada nutqni egallagan bo‘lishi, ma’lum malakalar, uquvlar va elementar tushunchalarga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Bularga bola o‘yin faoliyati orgali erishadi.

Ma’lumki, bolalarning assosiy vaqt o‘yin bilan o‘tadi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning assosiy faoliyati bo‘lib hisoblanadi. O‘yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub’ekti sifatida shakllana boshlaydi. O‘yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o‘ziga qaratib kelgingan dolzarb mavzudagi muamolardan biridir .

Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng assosiy va yetakchi faoliyatlaridan biri o‘yindir. Yetakchi faoliyat deb bolaning ayni shu yoshida tez – tez ko‘zga tashlanib turadigan xatti – harakatiga aytamiz.

Yetakchi faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o‘sishida jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, mana shunday assosiy faoliyat jarayonida bolaning barcha psixik prosesslari anchagina o‘sadi. O‘yin bola hayotida mana shunday assosiy faoliyatlardan biridir. O‘yin shu qadar universal, shu qadar ko‘p qirrali va qudratli faoliyatdirki, barcha yoshdagi bolalarni o‘yindan boshqa kamolga etkazishni tasavvur etish qiyin.

O‘yin fakat tashki muxitdagи narsa va hodisalarni bilish vositasi bo‘libgina kolmay balki, kudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o‘yinlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni barcha psixologik xususiyatlari shakllanadi. Mana shu nuktai nazardan o‘yin bogchadagi ta’lim-tarbiya ishlarini yulga kuyishda markaziy urinda turadi.

O‘yin jarayonida maktabgacha yoshdagi bolaning barcha psixik jarayonlari tarkib topishida imkon bo‘ladi. Chunki o‘yin faoliyati bolalarni diqqat va xotirasi, nutki, xayoli, hissiyoti, mehnatga oid malakalari va kobiliyatlarinamoyon bo‘ladi.

Rolli o‘yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning Yetakchi faoliyatidir. Rolli o‘yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muxim faoliyati bo‘lib, ular bunday o‘yinda guyo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. SHu boisdan o‘yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muxit voealari, oilaviy turmush hodisalari,



shaxslar aro munosabatlarini umumlashtirgan xolda aks ettirishga harakat qiladilar.

Bolalar kattalarning turmush tarzi, xis-tyygusi, uzaro muomala va mulokatlarining xususiyatlarini, uziga va uzgalarga, atrof-muxitga munosabatlarini yakkol voelik tarzida ijro etish uchun turli o‘yinchoklardan, shuningdek, ularning vazifasini utovchi narsalardan ham foydalanadilar. Ammo shuni ham alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabxalarini kamrab oladigan rolli o‘yin ularda birdaniga zmas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi, moxiyati va mazmuni jixatidan oddiydan murakkabga karab takomillashib boradi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, rolli o‘yin faoliyatini vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri - bolada *uz* xatti-harakatlari kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish, aynan unga uxshatish tuygusining mavjudligidir. Xuddi shu sababli kattalar va ularning xatti-harakatlari bolaning ham tashki, ham ichki ibrat namunasi bo‘ladi va kattalarning xulk-atvori, yurish-turishining ham ob’ekti, ham sub’ekti xisoblanadi. Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to‘grisidaggi xilma-xil o‘yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.Aksarinaning ta’kidlashicha, o‘yin o‘z-uzidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bo‘lishi lozim:

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
- 2.P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T., 1995 y.



ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМДА ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Абдуллаева Сурайё Зариповна

Хоразм вилояти Янгибозор туман 1-сон касб-хунар мактаби ишлаб чиқариш таълими бўйича директор ўринбосари
Телефон: +998(97) 360-83-66
Surayyo.040481@mail.com

Аннотация: мақолада профессионал таълимда инновацион технологиялардан фойдаланишнинг ташкилий-педагогик шарт-шароитлари ва ахборот-методик имкониятлари, инновацион технологияларни қўллашнинг афзаликлари ёритиб берилган.

Таянч сўзлар: инновация, таълим сифати, самарадорлик, натижা, метод, мастер класс, симуляцион таълим.

Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тугрисида»ги Конуни ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» мазмунида баркамол шахс ва малакали мутахассисни тарбиялаб вояга етказиш жараёнининг ҳар бир босқичи ўзида таълим жараёнини самарали ташкил этиш, уни юқори босқичларга кўтариш, шу билан бирга жаҳон андозалари талабларига жавоб берса оладиган таълим даражасига етказиш борасида муайян вазифаларни амалга ошириши лозим. Бугунги кунда таълим жараёнини ташкил этишга нисбатан ўта қатъий ҳамда мураккаб талаблар кўйилмоқда. Чунки, мураккаб техника билан ишлай оладиган, ишлаб чиқариш жараёнининг моҳиятини тўлақонли англаш имкониятига эга, фавқулодда рўй берувчи вазиятларда ҳам юзага келган муаммоларни ижобий ҳал эта олувчи малакали мутахассисларни тайёрлашга бўлган ижтимоий эҳтиёж таълим жараёнини технологик ёндашув асосида ташкил этишни тақозо этмоқда. Профессионал таълимда маҳсус фанларини ўқитишида инновацион технологияларидан фойдаланиш яхши натижা беради. Инновацион таълим мақсадга етишишга олиб борадиган, ўқитиши ҳаракатлари назарда тутилади. Ҳар бир машғулот учун таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи, яъни бир-бири билан узвий алоқада бўлган уч ёклама мақсадлар қўйилади. Машғулотни ташкил қилиш шакли унинг қатнашчиларининг ўзаро алоқаларига боғлик бўлиб, у мақсаддарга, ўқув материали хусусиятларига таълим методдарига ва ўқув имкониятларига боғлик. Ўқув жараёни уч компонентдан иборат бўлиб, ўқитишида ички мотивациядан (дикқатни жалб этиш, ички туйғу, истак, заруратни шакллантириш) келиб чиқиши керак. Ўқув жараёнда асосий ҳаракатлантирувчи куч талаба учун ҳам, ўқитувчи учун ҳам ички мотивация бўлиши зарур.

Профессионал таълимда амалий машғулотларни инновацион таълим турлари ва методлари орқали ташкил этиш мухим ўрин тутади. Амалий машғулотлар асосан ўзлаштирилган илмий билимларни мустаҳкамлаш ва уни амалда қўллай олиш, тегишли кўникма ва малакаларга эга бўлишни таъминлашга хизмат қиласди. Амалий машғулот профессионал таълимнинг таркибий қисми бўлиб, ўқув устахоналарида, лабораторияларида, ўқув машқ майдонларида иш ўрнида жойлашган реал воситалардан фойдаланилган ҳолда ўтказилади. Ҳозирда амалий таълимда замонавий ва тобора оммалашиб бораётган таълим технологияларидан бири бу “Мастер класс” технологияларидир. Мастер класс бу таълим тури бўлиб, ўз ишининг моҳир усталари томонидан ўтказилади. Машғулот маълум бир соҳанинг (тиббиёт, ошпазлик, сартарошлиқ, рассомчилик, тикувчилик ва дизайн ва бошқа соҳалар) етук мутахассиси, ўз ишининг моҳир усталари (мастерлар) томонидан ўтказилади. Мастер классларни оддий дарс турлардан фарқи шундаки: Мастер классларда бевосита ўз ишининг усталари фаолияти билан бевосита танишиш, ўрганиш имконияти бор. Мастер класслар хорижий давлатлар таълим тизимида жуда оммалашган бўлиб инглиз тилида Masterclass, немис тилида Meister, Werkmeister, рус тилида мастер класс, авторская мастерская. Ўзбек тилида “Моҳир усталар дарси” деб аталиши мумкин. Мастер класслар талабаларга ўзлари танлаган мутахассисликлари бўйича касбий муносабатларни асосини ўргатади. Шу билан бирга ўз мутахассисликларининг сир асрорларини ўргатади. Мастер класслар “ўқитувчи - талаба” икки томонлама жараёндир. Ҳозирги кунда профессионал таълим соҳасида Мастер класслар турли соҳаларда кенг қўлланилмоқда. Булар: медецина, мусиқа, ошпазлик,



сартарошлиқ, тикувчилик ва бошқа соҳаларда. Мастер класслар бевосита таълим муассасида амалий машғулотлар жараёнида ташкил этиш мумкин. Шунингдек, мастер классларда интернет орқали, масофавий ўқитиши орқали очиқ мастер классларда иштирок этиш мумкин. Мастер классларда ўз касбининг сир асрорларини ўрганиш билан бирга талабаларда фанлар бўйича амалий фаолиятни ривожлантириш, интелектуал ва эстетик тарбия беришdir. Мастер классларда талабаларнинг ўз мустақил фикрлари ривожланади ва бир қолида ишлашдан воз кечадилар.

Профессионал таълим соҳасига жадал суръатлар билан амалиётга йўналтирилган турли инновацион технологиялар асосида таълим жараёнини ташкил этиш усуллари кириб келмоқда. Симуляцион методлар ана шундай усуллардан бири бўлиб у профессионал таълим муассасалари ўқувчиларини профессионал компетенцияларини шакллантиришда ўзининг салмоқли хиссасини қўшмоқда. Қуйида профессионал таълим муассасалари РК ларни симуляцион технологиялардан фойдаланган ҳолда амалий машғулотларда компетенцияларини ривожлантириш мақсадида ўқитиши алгоритмини ва ана шу мисол орқали симуляцион технологияларнинг устунликлари ва нуқсонларини келтирамиз, уларга қўйидагиларни санаб ўтиш мумкин:

1. Машғулотлар шакли ўқитувчи томонидан батафсил таҳлил қилинади. Сертификатлаш мақсадида контроллерларни қўллаш зарур бўлади улар амалдаги ҳаракатларни объектив баҳолаш имконини беради.

2. Тингловчиларнинг мумкин бўлган ҳаракатларига қараб, бир нечта натижаларга эга бўлган машғулот учун сенарий ишлаб чиқилади.

3. Симуляция дарсида асосий рол СМТУ (симуляция методи бўйича тренинг устаси)га тегишли бўлиб, у дарсни ўқитиши вактини, тингловчиларнинг амалий ишларини ва кейинги ҳаракатларини муҳокама қилишни ҳисобга олган ҳолда режалаштиради.

4. Дарс натижаларини биргаликда жамлаш ва муҳокама қилиш ҳам муҳим аҳамиятга эга.

5. Дарсни муҳокама қилиш жараёнида СМТУ ва ўқувчилар тескари алоқадан фойдаланадилар, бу таълим жараёнини янада такомиллаштиришга (ўқув дастурларига ўзгартиришлар ва тузатишлар киритиши) асос бўлиб хизмат қиласди.

6. Дарсга тайёрланаётганда ва машғулот давомида ўқитувчи симуляция ускуналари билан ишлашга ўргатилган техник ходимлар билан ўзаро алоқада бўлиши керак.

Ҳар бир дарсдан олдин СМТУ ёки техник ходим симуляция тизими ускуналарининг нормал ишлашини кузатиб туради, жиҳозлар, тарқатма материаллар тайёрлайди, дастурий таъминот ўрнатади ва тренажёрлар ва роботлардан фойдаланиш бўйича қисқача брифинг ўтказади, дарс мавзуси бўйича тингловчиларгага тренажёрлар ва роботлардан фойдаланиш бўйича кўрсатмалар беради. Машғулот давомида, зарур бўлса, сарфланаётган материалларни алмаштиришни амалга оширади ва ускунани носозлигини бартараф этади. Амалий машғулотларни муваффақиятли ўтказиш учун тингловчиларнинг онгли ҳаракатни амалга оширишга тайёрлиги талаб этилади. Ўқув асосий билимдир, шунинг учун назарий материални маъruzаларда ўзлаштириш ва масофавий таълим технологияларидан фойдаланган ҳолда, ушбу материал интерфаол синфларда (семинарлар, давра сухбатлари, видеоконференцияларда) мустаҳкамланиб, кейин олинган билим даражаси баҳоланади (сўров, коллоквиум, тест). Тренинг дегандан биз симуляцион технологияларидан фойдаланган ҳолда амалий машғулотни ташкил этишини тушунамиз, унда дастлабки босқичда назарий материални чуқур ўрганиш ва амалий вазифаларни кейинги мулоҳазалар билан амалга ошириш, масалан, дебрифингда ўқитувчи билан биргаликда тингловчиларнинг ўзлари томонидан дарс натижаларини таҳлил қилиш киради. Ўрта таълим дастурлари бўлимлари бўйича тренинглар ўтказиш симуляция маркази интеграциясига асосланган. Бундай машғулотларни ўтказишнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ўқитувчилар амалий дарснинг анъанавий гоясидан фарқ қилувчи методика билан таништирилиши, инструктор – ўқитувчиларга эса ўқитувчи томонидан қўйилган ўқув мақсадларини ҳал қилувчи машғулот дастурини тузишда методик жиҳатдан ёрдам бериш керак бўлади.

Профессионал таълим муассасалари мутахассисларини таклиф қилинаётган симуляцион усулда малакасини ошириш бир қатор афзалликларга эга бўлиши билан бирга бальзи камчиликлари ҳам мавжуд, унга РК нинг умумий компетенциясини баҳолашнинг ягона мезони мавжуд эмаслиги киради, бироқ шунга қарамай таклиф этилаётган симуляцион усулда ПТМ РК ларнинг профессионал компетентлигини юксалтириш кутилаётган



натижани яъни уларнинг мавжуд профессионал компетенцияларини ривожлантириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2019 йил 6 сентябрдаги ПФ-5812-сон Фармон (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.09.2019 й., 06/19/5812/3699-сон).
2. Поташник М.М. Управление профессиональным ростом учителя в современной школе. М.: Центр педагогического образования, 2010. 448 с.
3. Д.Саидахмедова. Узлуксиз таълим тизимида раҳбар кадрлар заҳирасини тайёрлашнинг долзарб масалари. Мураббий маҳорати. Илмий методик, оммавий-маърифий журнал. №3. – 2016 й.
4. Кузина Н.В., Кузина Л.Б., Сулимов К.Т. — Симуляционное обучение при подготовке кадров высшей квалификации и в дополнительном профессиональном образовании: К вопросу о definицииах и структуре процесса // Современное образование. – 2018. – № 2. – С. 118 - 139.
5. <https://cyberleninka.ru>
6. <https://www.science-education.ru>



ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ШКОЛАХ

Мирзаахмедова Гулчехра Эркиновна
учитель начальных классов школы №24
города Ферганы Ферганской области

Аннотация: в статье исследовано, что развитие личности школьников является важным вопросом в обучении русскому языку.

Ключевые слова: коммуникативных задач, языковой барьер, ударение, буква, определение рода существительных.

Важнейшей задачей обучения русскому языку в национальной школе является развитие связной речи учащихся, что обусловлено принципом коммуникативной направленности обучения. Решение коммуникативных задач должно привести к тому, чтобы оканчивающие национальную школу хорошо владели родным и русским языками.

Использование текстов художественных эффективны лишь в том случае, если учитель ведёт системную работу, параллельно связывая уроки языка с литературой. Именно языковой материал позволяет учителю раскрыть перед нерусскими школьниками богатство и красоту русского языка, а также увидеть закономерности русского языка, в результате чего у учащихся развивается орфографическая зоркость, вырабатываются пунктуационные навыки и формируется мышление.

Рассмотрим некоторые аспекты преподавания русского языка в национальной школе.

1) Это языковой барьер. В узбекской школе доминантным является узбекский язык. Дети с русским языком контактируют в ситуации урока и во внеурочных мероприятиях. Многие старшеклассники не могут грамотно излагать своё мнение, не могут найти в русском языке эквиваленты слов при общении, соответственно вставляют слова из родного языка, автоматически больше предпочитают отвечать на узбекском языке;

- незнание лексических значений некоторых слов, даже из контекста учащиеся не могут установить значение слова;

- на уроке некоторые учащиеся зачастую отмалчиваются из-за боязни допустить ошибки в речи. Таким учащимся нужна своевременная помощь учителя, лингвистическая поддержка до определённого времени.

2) Значительные трудности для учащихся узбекской школы представляет правильная постановка ударения в русских словах. В узбекском языке ударение обычно падает на последний слог слова (*китоб*, *гулчечák*, *карá*, *яшил*). Ударение в русском языке разноместное и подвижное. Это значит, что в русских словах ударение может быть на любом слоге: *тòрты*, *срéдства*, *ðтрóчество*, *закúпорить*, *добрáться*. Метод сопоставления произнесения слогов под ударением в родном и русском языках поможет определить причины нарушения акцентных норм, наметить методические приёмы обучения нормам ударения. Учащиеся часто анализируют не звуки, опираясь на законы устной речи, а буквы, которые изображают их в письменной речи. Например, словоформа *тортов* произносится с ударением на последнем слоге, хотя правильным считается звучание *тòртов*; многие считают нормативным ударение *позвонíм* (правильно: *позвонíм*).

3) Существует трудность, связанная с различием существительных по одушевлённости и неодушевлённости. При постановке вопросов к существительным *лошадь* (*от*), *корова* (*сигир*), *собака* (*ит*), *рыба* (*балиқ*), *галка* (*қарға*) учащиеся автоматически задают вопрос *что?* (*нарса?*)

4) На письме наблюдается замена букв *иҶ* - *ч* (маскировщик, очутился). Порой орфографические ошибки носят самый элементарный характер и допускаются даже в часто употребляющихся словах: *счастливый* (вм. *счастливый*), *чесноть* (вм. *честность*).

5) Есть трудности при осмыслении учащимися глаголов движения. Если в русском языке движение по земле дифференцируется на движение пешком и при помощи транспорта, то в узбекском языке подобная дифференциация отсутствует: глаголы *ехать* и *идти* передаются одним словом (*бормоқ*). В итоге создаётся путаница между навыками в родной и русской речи.

7) Определение рода существительных. Трудность усвоения категории рода вызвана



разными морфологическими способами обнаружения рода существительных. Род существительных с нулевым окончанием (конь - степь) определяется по окончаниям Р.п. и по суффиксам. Существительные муж. р. в Р.п. имеют окончание **-а, -я**, а женского рода – окончание **-и; суффиксы -тель, -арь** указывают на принадлежность к мужскому роду (*писатель, пахарь*), а суффикс **-ость** – показатель женского рода (новость, гордость).

Считаю, необходимо учитывать вышеуказанные особенности, потому что учащиеся закономерности русского языка понимают через многогранностьюузбекского языка.

Следует обратить внимание на приёмы формулировки домашнего задания. Эту весьма важную форму связь урока с внеурочными видами работы нельзя оставлять на самые последние минуты урока. Ученики при записи домашнего задания должны быть убеждены, что оно является необходимым продолжением проведенного на уроке закрепления материала, без которого невозможно успешное восприятие последующего. Такая установка заставит учащихся серьёзно относиться к домашнему заданию, особенно если они сами участвовали в его формулировке.

Таким образом, в преподавании русского языка важным становится развитие личности школьника, способного жить и трудиться, творчески реализовывать себя в современном обществе XXI века.

Список использованной литературы:

1. Акишина А.А., Каган О.Е. Учимся учить: Для преподавателей русского языка как иностранного. М., 2004.
2. Азимов А.Г. Словарь методических терминов/ А.Г. Азимов, А.Н. Щукин. СПб.: Златоуст, 1999. 472с.



ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ ВОЕННОГО ЮРИСТА

Ёриев Озодбек Ойбек ўғли,

курсант 1-ого курса Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

Турсуналиев Мансур Махпирали ўғли,

курсант 1-ого курса Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

Ашурев Рустам Рузиколович,

курсант 1-ого курса Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

Наркулова Индира Рустам кизи,

доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
старший преподаватель кафедры «Изучение языков»

Университета общественной

безопасности Республики Узбекистан

Аннотация: в статье рассматриваются особенности профессиональной речи военного юриста.

Ключевые слова: профессиональная речь, культура речи, военный юрист, компетенция.

Развитие военного сотрудничества с зарубежными странами, расширение обмена информацией военного характера, организация и проведение совместных учений и маневров, партнерство в подготовке военных кадров порождают потребность в офицерах, свободно владеющих русским языком. На сегодняшний день изучение языка законов, процессуальных актов, судебных речей осуществляется двумя науками: юриспруденцией и лингвистикой. Однако, говоря о языке нормативного или процессуального акта, судебной речи, авторы выступают, прежде всего, как юристы, так как их интересует выраженное в документе правовое содержание, анализ же языка, как правила, без соответствующей лингвистической основы, и сводится, по существу, к общим рассуждениям о точности, доходчивости, выразительности.

По глубокому убеждению А.Ф. Кони, военный юрист должен быть человеком, безупречно владеющим нормами литературного языка, у которого общее образование идет впереди специального. Юрист ежедневно имеет дело с самыми разнообразными явлениями жизни, и эти явления он должен правильно оценить, принять по ним нужное решение и убедить в правильности своей точки зрения обращающихся к нему людей. Нарушение юристом языковых норм может вызвать отрицательную реакцию со стороны собеседников. Значит, язык – это профессиональное оружие юриста. И вопросы культуры речи юриста поднимаются самой жизнью, практической необходимостью.

Речь в деятельности юриста выступает как носитель информации и как средство воздействия. Воздействие при помощи речи бывает разных типов: воздействие человека на человека, человека на группу лиц, человека на аудиторию и др.

Качество юридической речи в первую очередь зависит от точного словоупотребления. Для того чтобы в каждом конкретном случае правильно и точно выбрать слово, необходимо знать его значение, смысловые связи с другими словами. Искусно построенная речь юриста также зависит от многих качеств, таких, как ясность, точность, логичность, уместность, правильность, индивидуальность.

Ясность в речи юриста достигается глубоким знанием материала, четкой композицией речи, логичностью изложения, убедительностью аргументов. Речь становится неясной вследствие нечеткого знания материалов дела, низкой культуры мышления. Довольно часто речь становится неясной из-за использования в ней иноязычных слов и узкоспециальных терминов, например, «моему подзащитному инкриминируется...» и т.д. Речевая избыточность может проявляться в употреблении слов, ничего не прибавляющих к содержанию высказывания, даже в узком контексте: незаконное растаскивание государственного имущества (может ли растаскивание быть законным?), обмен имеющимся опытом, прожить



всю свою жизнь в деревне и т.п. В речи юриста точность выбора слов играет важную роль при выражении норм права, при обозначении действий обвиняемого или подсудимого, при обосновании квалификации преступления.

Точность слов создается при употреблении юридических терминов и клише: мотивы преступления, а не побуждения: возбудить уголовное дело, а не начать: дело выделено в отдельное производство, а не в самостоятельное: применить меры пресечения, а не принять и др. П.С.Пороховщиков советовал судебным ораторам запомнить, что одно неудачное выражение может извратить мысль, сделать трогательное смешным, значительное лишить содержания, как в данном случае, когда прокурор, поддерживая в открытом процессе обвинение в убийстве, сказал, что подсудимые «откололи такое». Нарушение точности приводит к тому, что представления понятия искажаются.

Логичность в лингвистике определяется как выражение в смысловых связях компонентов речи связей и отношений между частями и компонентами мысли. Так, употребляя слова «прокурор и адвокат», мы различаем эти понятия по основным признакам: прокурор поддерживает государственное обвинение в суде, адвокат защищает права подсудимого; причем представляем их обобщенно, без индивидуальных характеристик. Преступление вызывает в нашем сознании понятие о нем как о негативном, противоправном явлении вообще, без конкретизации его видов.

Ценным качеством речи является индивидуальность – умение говорить о самых знакомых фактах своими словами, не употребляя речевых штампов. Штампы – это шаблонные, надоевшие выражения с потускневшей от частого употребления семантикой.

Нередко в процессуальных актах употребляются уродливые штампы вместо клише, например: «уголовное дело производством прекращено вместо производство уголовного дела прекращено» или «отложить дело слушанием, а надо отложить слушание дела».

В чем здесь ошибки? В словосочетаниях перепутаны управляющие и управляемые слова. В праве есть понятие "возбуждение уголовного дела", далее ведется "производство дела". Значит, прекращается производство дела, т.е. прекращается разбирательство, а не само дело. Такая же ошибка в штампе "при отложении дела слушанием": назначается слушание дела, и откладывается тоже слушание дела. Исправим: "при отложении слушания дела".

Таким образом, юристу особенно важно обладать языковым вкусом, так как основной инструмент в его работе - слово, которое он несет людям. Ему необходимо различать такие явления, как клише и штампы, и использовать слова и юридические формулировки обдуманно, тем самым повышать качество и воспитательное значение процессуальных актов и своей речи.

Литература:

1. Шереметьева А.Г. Основы общей и русской вариологии.- Ташкент “Mo’mtoz so’z”, 2012.
2. Наркулова Индира. (2022). ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ-БИЛЛГВОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 185–193. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/erus/article/view/315>.
3. Аманбаев, Ж. А. Технология организации самостоятельной работы в высших военных образовательных заведениях Республики Узбекистан / Ж. А. Аманбаев, И. Р. Наркулова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 23 (418). — С. 136-139. — URL: <https://moluch.ru/archive/418/92843/> (дата обращения: 14.09.2022).



TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA TEXNOLOGIK
BILIMLARNI SHAKILLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Kenjayev Sherzod Mammatjumayevich

Xorazm viloyati PYMO'MM

“Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lif metodikasi kafedrasi” mudiri

Annotatiya: Ushbu maqolada umumta'lif maktablari texnologiya fani darslarida o'quvchilarning texnologik bilimlarini shakillantrishning dolzarbliги haqida ma'lumotlar keltirilgan

Tayanch so'zlar: texnologik bilim, ishlab chiqarish, texnologik jarayon, o'quv istaxonasi, texnika xavfsizligi, kasb tanlash, zamonaviy ta'lif, agrar ishlab chiqarish.

Respublikamizda uzlusiz ta'lif tizimida turli sohalarda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ularning yuksak bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish jarayonida yetuk malakali mutaxassislar faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'ygan ijtimoiy buyurtmasini bajarishda texnologiya fani jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xozirgi kunda qator rivojlangan davlatlarning ta'lif tizimi tahlil qilinganda texnik-texnologik jarayonlarga jiddiy e'tibor berilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatning rivoji ishlab chiqarish sohasiga bog'liq ekanligi, ishlab chiqarish sohasining rivoji mutaxassislar malakasiga bog'liqligi isbotlanmoqda.

Davlat ahamiyatiga molik ushbu vazifani bajarish uchun texnik-texnologik jarayonda o'qituvchilarning o'z kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini, kasbiy mahoratini takomillashtirishni hamda dinamik ravishda rivojlanib borayotgan pedagogik jarayon talablari darajasida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yutuqlari, zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalar, ishlab chiqarish va bozor iqtisodiyoti munosabatlari bo'yicha mukammal bilimlar, ko'nikmalarni egallashni taqozo etadi. Shu munosabat bilan, texnologiya fani o'qituvchisining bilim, ko'nikma va malakalari ko'lami va sifati, uning ta'lif-tarbiya jarayonini umumiylig o'rta ta'lif DTS talablari asosida tashkil etish va o'tkazish bo'yicha erishgan yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklari, kasbiy mahorati va hokazolar kabi murakkab va ko'p qirrali faoliyatini takomillashtirish jarayonining didaktik shart-sharoitlarini aniqlash, nazorat maqsadiga muvofiq ravishda uning shakl, tur, usul va vositalarini optimal tanlash asosida nazorat o'tkazish metodikasini ishlab chiqish, uning mazmunini boyitish, bu sohada mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan tashkiliy ishlarni tahlili bu borada amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarni ilmiy-uslubiy asnosida tashkil etilishini talab qilmoqda.

Texnologik bilim va ko'nikmalar asosan texnologiya fani darslarida shakllantirishini hisobga olsak, ushbu fanga e'tiborni kuchaytirish davr talabi ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan texnologiya fanida o'quvchilarning ham intellektual ham jismoniy bilim, ko'nikma va malakalari uyg'unlashgan holda shakllanishi hamda texnikaga oid mehnat qilishning sensor ko'nikmalarining rivojlanishi, shuningdek kasblar olami, kasb tanlashdagi qiyinchiliklar va nomutanosibliklar, kasb tanlashda e'tiborga olinadigan omillar haqidagi ma'lumotlar fanning assosiya maqsadi sifatida beriladi. Demak, texnologiya faniga e'tibor berilishi natijasida nafaqat texnikaga oid qiziqishlarini balki yoshlarning o'z kasblarini ongli, barcha jihatlarini xisobga olgan holda tanlashlariga erishiladi. To'g'ri kasb tanlagan o'quvchilarning qiziqishini oshirish ya'ni ta'lif sifati va samaradorligini yuksaltirish natijasida yetuk, jahon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashga zamin yaratgan bo'lamic. Ushbu mutaxassislar bevosita ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirgan holda mamlakat rivojiga o'z xissalarini qo'shadilar.

Shuni aytish mumkinki, texnologiya fani darslarini tashkil etishda zamonaviy ta'lif texnologiyalari va vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish natijasida o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishlari ortishi, amaliy mashg'ulotlarda mehnat ob'ektlarini bajarish bo'yicha aniq tasavvurlarga ega bo'lishi, mehnat operatsiyalarini bajarish bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilishida keng imkoniyatlar ochadi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha rivojlangan davlatlar agrar ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishga ya'ni yangi texnika va texnologiyalarga asoslangan avtomatik-mexanizatsiyalashgan sanoat ishlab chiqarish davlatiga o'tib bormoqda. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda



mutaxassislarning texnikaviy salohiyati muhim o’rin tutadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning boshlang’ich ko’nikmalari aynan umumiy o’rta ta’lim maktablarida texnologiya fani darslarida tarkib topadi.

Maktablarda mehnat tarbiyasini to’g’ri yo‘lga qo‘yish, texnologik bilimlarni shakillantirish, o‘quvchilarda mehnat malakalarini hosil qilish, ularda mehnat madaniyatini shakillantirish, turli hil kasblarga xavas uyog‘otish, amaliy mashg‘ulotlarning samarali o‘tishi o‘quv ustaxonalarining barcha talablarga javob berarli darajada jihozlanishiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

O‘quv ustaxonalarining estetik jihatdan o‘quvchilarning diqqatini jalb etadigan, kasbga xavas uyg‘otadigan, xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan qilib jihozlash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun barcha turdag‘i ish o‘rinlarini tashkil qilishga, qo‘srimcha jihozlarni, ko‘rgazmali o‘quv buyumlarini did bilan, saranjom-sarishtali o‘rnatishga alohida e’tibor berish zarur. O‘quv ustaxonalarini jixozlashda yuqori sinf o‘quvchilari tomonidan tayyorlangan ish namunalarini namoyish qilish yosh hunarmandlarning o‘rganayotgan kasbiga bo‘lgan qiziqishini ortib borishida alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘quv ustahonasining maydoni guruhdagi o‘quvchilar soniga qarab yetarli darajada ish o‘rinlarini joylashtirish imkonini beradigan bo‘lishi kerak. O‘quv ustaxonalarida individual ish o‘rinlaridan tashqari, umum foydalanimadigan ish o‘rinlari, qo‘srimcha jihozlar ham joylashtiriladi. Duradgorlik va chilangarlikka ixtisoslashtirilgan o‘quv ustahonasida umumfoydalaniladigan ish o‘rinlarida turli tipdagi yog‘och, metall ishlash stanoklari, charx, kunda, bo‘yoqchilik stoli va boshqalar joylashtiriladi.

Republikamizda umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotgan bir davrda texnologiya fani bo‘yicha o‘quv ustaxonalarining moddiy-texnik jixatdan etarli darjada jixozlanishi va ulardan dars jarayonida unumli foydalanishi natijasida texnologiya fani darslari sifatini ham yuqori darajaga olib chiqish mumkin.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000